

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARDAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Qulyozma huquqida
UDK 73/76:681.14

JABBOROV QOBIL LATIFOVICH

**NAQSH ELIMENTLARINI KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI
ASOSIDA TUZISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

5A140901-Kasb ta'limi (Amaliy san'at) mutaxassisligi

Magistr
Akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

ILMIY RAHBAR
Texnika fanlarinomzodi,
Dotsent. M.Umarov

SAMARQAND - 2012

Mundarija

Kirish.....	3-12
I BOB. O'zbekistonda naqsh san'atining rivojlanishi va taraqqiyoti...	13-34
1.1.-§. O'zbekistonda naqqoshlik san'ati va yetakchi naqqoshlar tarixi va rivojlanishi.....	13-22
1.2. -§. Xalq amaliy san'atida naqsh kompozitsiyalari va ularning turlari.....	23-34
II-Bob. Naqsh kompozitsiyalarini kompyuter asosida tuzish texnologiyalari.....	35-77
2.1. -§. Kompyuter texnologiyalari – ta'lim samaradorligini oshirish omili.....	35-42
2.2. -§. Paint va Power Point dasturining naqqoshlik san'atidagi ahamiyati.....	43-59
2.3.-§. Corel DRAW dasturida naqsh elementlarini chizish bosqishlari.....	60-77
III-Bob. Kasb-hunar kollejlarda naqqoshlik darslarining o'qitilish va o'rganilish darajasi.....	78-84
3.1. -§. Kasb-hunar kollejlarda naqqoshlik san'atining o'qitilishi.....	78-80
3.2. -§. Tajriba sinov ishlari olib boorish va undan olingan natijalar.....	80-84
Xulosa.....	85-86
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	87-90
Ilovalar	

Kirish

Muammoning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasining mustaqallikka erishishi ma'naviy, tarixiy qadriyatlarimiz hamda xalq pedagogikasi an'analarini qayta tiklash va ularni zamonaviy pedagogik hamda axborot texnologiyalari asosida rivojlantirishga katta yo'l ochib berdi. Ta'lim sohasini yanada rivojlantirishga yangidan-yangi qonunlar, farmoyishlar e'lon qilindi. Har bir sohaga axborot texnologiyalari shiddat bilan birib kelib, inson mehnatini sezilarli darajada yengillashtirdi. «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish» to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida buning tasdig'ini ko'rish mumkin. Darhaqiqat, hozirgi kunda ta'lim sohasida kompyuter imkoniyatlaridan foydalanmaydigan o'quv fanlarini topish mushkuldir. O'quv jarayonidagi barcha fanlarga tadbqiq etilgan axborot texnologiyalarining turli dasturlari ishlab chiqilib, o'tiladigan dars soati yildan-yilga ortib bormoqda. Hozirgi kunda kompyuterdan ta'lim tizimining turli sohalarida: chizmachilik, kimyo, fizika, informatika, biologiya, matematika kabi fanlardan keng foydalanilmoqda.

Kompyuterda chizmalarni bajarish o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otish bilan birga o'tilgan materiallarni o'zlashtirishni faollashtiradi.

Ammo, dunyo miqiyosida loyihalash, chizma chizish bo'yicha bir qator dasturlar aynan rassomchilik, amaliy san'at, dizayn kabi sohalarining mehnatini yengillashtirish uchun ishlab chiqilgan va foydalanib kelinmoqda. O'zbek xalq amaliy san'atini misol qilib oladigan bo'lsak (naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi va boshqalar) uning asosi-kompozitsiyasini chizish uchun manzur bo'ladigan o'simliksimon (islmiy) naqsh kompozitsiyalari uchun Corell DRAW hamda geometrik (girihi) naqsh kompozitsiyalarini chizish uchun ko'proq mos bo'lgan Auto CAD (Auto Computer-Aided Design – kompyuter yordamida avtomatik loyihalash tizimi) kabi dasturlar mavjud. Bugungi kunda KHK dagi dekorativ-amaliy san'at fanlari blokining dasturiga zamonaviy kompyuter dasturlari (Photoshop, 3D Max) foydalanishga kiritilgan bo'lib, unda tayyor kompozitsiya yoki buyum rasmini skaner yordamida kompyuter xotirasiga joylab, dizaynini

o'zgartirish uchun qo'llaniladi. Lekin bunda kompozisiya chizish jarayoni an'anaviy qo'l mehnati asosida qog'oz, qalam, chizg'ich va sirkul yordamida amalga oshiriladi. Corell DRAW hamda Auto CAD grafik dasturlarida ishlash afzalligi shundan iboratki, bunda hech qanday chizmachilik asboblarning keragi yo'qligi, buyruqlarning barchasi avtomatlashtirilganligi hamda chizmalarning yuqori aniqlikda bajarilishidadir. Corell DRAW hamda Auto CAD dasturlaridan foydalanib o'tilayotgan chizmachilik darslari o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otayotgani va dars samaradorligiga ijobiy ta'sir o'tkazayotgani hammaga ma'lum, ulardan o'rnak olib amaliy san'at fanlaridagi kompozisiya darslarida ham ushbu dasturlardan foydalanish maqsudga muvofiq bo'lar edi. Bunday zamonaviy yondoshuv xudi chizmachilik kabi amaliy san'at sohasida ham yuqori ko'rsatkichlarga olib kelishi tabiiydir.

Hozirgi davr jamiyat taraqqiyoti bevosita o'sha jamiyatni axborotlashtirish bilan bo'lib, har bir davlat yoki jamoa o'z axborotlash strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirishga katta ahamiyat berishi bilan xarakterlanmoqda. Bu borada respublikamizda qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ular: O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish haqida" gi 1993 yil 7- maydagi Qonuni; O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 9 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasini axborotlashtirish kontseptsiyasi; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6 iyundagi "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 200-sonli Qarori; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 23. 05. 2001 yildagi "2001-2005 yillarda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish. "Internet" ning xalqaro axborot tizimlariga keng kirib borishini ta'minlash dasturini ishlab chiqishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori fikrimiz dalilidir [4,6,7,9].

Shuningdek, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da "Ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish" - deb nomlangan 4.10-bandida "Zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuterlar

tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlash rivojlanib boradi" - degan fikr davlatimiz bu sohaga qanchalik e'tibor berayotganligini ko'rsatadi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da ta'kidlanganidek, Oliy ta'lim muassasalar (OTM) ida mutaxassislarni tayyorlash tizimi, barkamol avlodni voyaga etkazuvchi asosiy jarayon deb atalmoqda. Chunki, ta'lim oluvchi ushbu tizimning birinchi bosqichida, ya'ni kasb-hunar kolleji ta'lim bosqichi undan keyingi oliy ta'lim bosqichida ta'lim olish uchun tayyorlanadi, keyingi bosqichda esa tayanch bosqichda olingan bilimlarini yanada rivojlantiradi. Bunda bilim yuqorida qayd etilgan tizimdagidek o'zlashtirilgan axborot va innovatsiyadan iborat bo'ladi. Inson faoliyatining axborotlar tayyorlash bo'yicha imkoniyatlarining kengligi mazkur tizimdagi axborotli-o'quv muhitini yaratishda asosiy omillardan biri bo'lib, u eng muhim ilmiy-texnik vazifadir.

Ma'lumki, ta'limni axborotlashtirish, bu ta'lim tizimining barcha komponentlariga zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash demakdir. Bunda talaba, o'qituvchi va YaAT vositalari o'rtasidagi aloqalar jarayoni faoliyati yuzaga keladi hamda muayyan o'quv kursi (predmeti) bo'yicha zarur komponentlarni jamlagan sharoitda talabaning bilish faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish tushuniladi.

Demak, yuqorida qayd etilganlardan bugungi kunda malakali mutaxassislar tayyorlashda zamonaviy axborot texnologiyalari (ZAT) va zamonaviy innovasion texnologiya (ZIT) larni ishlab chiqish va ularni hayotga joriy etish tajribasidan kelib chiqib, ularning o'z kasbiy faoliyatlarini takomillashtirib hamda samarali innovatsion uslublarni yaratish, o'zlashtirish, ularni amaliyotga joriy qilishimiz lozimligi kelib chiqadi.

Bugungi kunda amaliy san'at darslarida naqsh kompozisiyalarini tuzishni takomillashtirishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanib o'qituvchilarini tayyorlash dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bunga sabab amaliy san'at o'qituvchisi mustaqil Respublikamiz taraqqiyotini yanada mustahkamlovchi malakali kadrlar tayyorlashda o'quvchilarga tegishli yo'nalish beradi, ya'ni umumta'lim maktablari o'quvchilarni estetik va ma'naviy tarbiyalovchi, milliy

qadriyatlarimizni o'rgatuvchi, qolaversa kasbga yo'naltiruvchi asosiy shaxs hisoblanadi. Buni prezidentimiz I.Karimovning quyidagi fikrlarida ko'rish mumkin: «Hozirgi kunda milliy ma'naviyatimiz rivojini tasviriy san'at namunalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'zbek rassomlarining keyingi yillarda samarali ijod qilib, yangi-yangi yutuqlarni qo'lga kiritayotgani, bu sohaga ko'plab yosh iste'ded egalari kirib kelayotgani uning ravnaqi va istiqbolidan dalolat beradi»¹.

Amaliy san'at fani bo'yicha kasb-hunar davlat ta'lim standarti (DTS) va o'quv rejasini tahlil qilar ekanmiz, unda o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan minimal bilim, ko'nikma, malakalarning mazmunida bir qator tushunchalar qatori naqqoshlikka oid bo'lgan tushuncha, bilim, ko'nikma va malakalar ham egallashi lozim ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi.

Hayotimizda qo'llanilayotgan buyumlarda naqsh elementlari va namunalari haqida o'quvchilarga bilim berishda naqqoshlikka oid bilim, malaka va ko'nikmalarining shakllanishi nihoyatda muhim. Shuningdek, naqqoshlikka oid bilimlar rasm, tasviriy san'at va chizmachilik fanlaridagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashda ham muhimdir. Ushbu sohadagi olib borilayotgan ilmiy - tadqiqot ishlarini tahlil qilib chiqqanimizda olimlarimiz va mutaxassislarimiz tomonidan quyidagi natijalarga erishilganligi kuzatdik.

Muammoning o'rganganlik darajasi. Yoshlarning ta'lim-tarbiyasi har qanday jamiyatning, davlatning, millatning kelajagini belgilaganligi uchun xalqimiz azal-azaldan o'z avlodining an'alariga, urf-odatlariga sodiq holda shakllanishiga e'tibor berib keladi. Yoshlarni ilmga, kasb-hunarlariga, birorta foydali mashg'ulotlarga o'rgatib borish, xalqning urf-odatlari, rasm-rusumlari, aqidalarini hurmat qilish, an'alariga hurmat, vataniga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda mehnatsevarlik, insonparvarlik, mehmondo'stlik xislatlarini shakllantirib borish xalqimiz orasida ulug'lanib kelayotgan keng miqyosdagi ustoz-shogirdlik odatlaridan hisoblanadi. Ustoz o'gitlariga amal qilish, uni hurmat qilish, nasihatlariga quloq solish ham yosh avlod tomonidan bajarilishi singdirib borilgan.

¹ I.Karimov Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2008. 147 bet.

Ushbu ta'limiy-tarbiyaviy fikr-mulohazalar, shogirdlar shakllanishida ustozning o'rni, ustozlar fazilatlari, ilm, kasb-hunarlar o'rganish va o'rgatishning afzalligi juda ko'plab tarixiy meroslarda, manbalarda bayon etilgan. Tarixiy jarayonlarda asosiy qismlari yo'qolib ketgan bo'lsa-da hanuzgacha madaniy taraqqiyot uchun xizmat qilib kelayotgan toshbosma va xatbosma qo'lyozmalar turli xil me'moriy obidalarga, buyumlarga bitilgan bitiklar, qadimiy yozuvlar, xalq yozma va og'zaki ijodi, amaliy, tasviriy va musiqa san'ati va boshqa turli xil adabiy manbalar ham xalqning qadimdan ta'lim-tarbiya, ustoz - shogirdlik an'analari bilan shug'ullanganligidan yaqqol nishonadir.

Sharq mamlakatlarida yashab ijod etgan buyuk mutafakkirlar Hakim at-Termiziy (824-932), Xo'ja Ismoil Imom al-Buxoriy (810-870), Moturidiy Abu Nasr Samarqandiy (vafoti 945), Abu Nasr Forobiy (873-950), Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Abu Ali Ibn Sino (980-1037), Yusuf Xos Hojib (1016 yil), Umar az-Zamahshariy (1075-1114), Ahmad Yassaviy (XII asr), Xoja Bahovuddin Naqshbandiy (1318-1389), Mirzo Ulug'bek (1394-1449), Abduraxmon Jomiy (1414-1492), Alisher Navoiy (1441-1504), Zahiriddin Muhammad Bobur (1443-1530) kabi allomalarning asarlarida ham jamiyat taraqqiyotida ilm-fanni, kasb-hunarlarni o'rgatish, ustoz-murabbiylar xislatlari yoritilgan.

O'zbekistonlik pedagog olimlardan J.G'.Yo'ldoshev, K.Zaripov - pedagog-kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, M.Ochilov - o'qituvchi kasbiy odobi, M.T.Davletshin - psixologik tayyorgarlik, X.Ibrohimov - umumkasbiy-mutaxassislik tayyorgarligi, U.Tolipov - talabalarning umumpedagogik, umummehnat tayyorgarligi, T.To'laganov - matematik tayyorgarligi, A.R.Xodjaboyev - mehnat ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashning o'quv-metodik ta'minoti kabi qirralarini yoritdilar.

Yoshlarga tasviriy va amaliy san'at hamda hunarmandchilik turlarini o'rgatishning metodik masalalari bilan N.N.Aleksaxin, S.S.Bulatov, Yu.K.Jeltuxov, Q.Qosimov, B.Oripov, G.P.Kalinina, I.Karimov, A.Sulaymonov, N.Oydinov, A.Morozova, A.P.Gapparova, M.I.Maksimova, G.L.Chepeveleskaya, M.Nabiyev, P.A.Goncharova, M.Raximov, M.Mirzaxmedov, S.Ergashev,

R.Sarsenboyeva, N.Ashurov, B.Muranov kabi ko'plab olimlar turli darajada ishlar olib bordilar.

Pedagog olimlardan N.Shodiyev, R.H.Jo'rayev, U.Nishonaliyev, N.Sayidahmedov, P.T.Magzumov, Ya.Haydarov, N.Muslimov, E.Choriyev, O'.K.Tolipov, X.Sobirov, O.Abduquddusov, Sh.Sharipov va boshqalar bo'lg'usi mehnat ta'limi o'qituvchisining turli xil faoliyatining xilma-xil sohalarini tatqiq qildilar. Masalan, N.Shodiyev - bo'lg'usi mehnat ta'limi o'qituvchilarining maktabda kasb tanlash ishlariga rahbarlikka tayyorlash, N.Sayidahmedov esa - talabalarni ishlab chiqarish mehnatiga tayyorlash, U.Nishonaliyev esa - mehnat ta'limi o'qituvchisi shaxsiyatining shakllanishi, N.Muslimov - bo'lg'usi kasb ta'limi o'qituvchisi faoliyatini yoritish, S.S.Bulatov – amaliy bezak san'ati, Q.Qosimov – ganchkorlikning xususiyatlarini yoritish bilan shug'ullandilar. Ammo, bo'lg'usi mehnat ta'limi o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash ishining rang-barangligi hamda mazkur o'qituvchilarning faoliyatiga qo'yilayotgan ijtimoiy buyurtmaning davr sharoitiga mos holda uzviy ravishda yangilanib turishi, bo'lg'usi mehnat ta'limi o'qituvchilarning umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi mehnat ta'limi Davlat ta'lim standarti (DTS), o'quv reja, dasturlari bilan ishlashida kelib chiqayotgan murakkabliklar, mazkur ta'limning moddiy, xomashyo ta'minotiga *muhtojligi*, amaliy fanlardan ekanligi bizga ilmiy tadqiqot ishi mavzusini quyidagicha tanlashga imkon yaratdi:

Yuqoridagi tahlillarimiz hamda pedagogik institutlarida malakali mutaxassislarni tayyorlash jarayoni tahlili va mazkur yo'nalishni takomillashtirish borasidagi mavjud amaliy ish tajribalarimiz natijalari amaliy san'at bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashda kompyuter texnologiyalarini foydalanish nihoyatda muhimligi va samarali ekanligini ko'rsatdi:

- o'qitishning har bir bosqichidagi ya'ni o'quv rejasidagi har bir fanlar bloklarida ta'lim mazmunini (o'quv rejasi va dasturi, o'quv rejasidagi fanlar bloklari va ularning uzviyligi hamda uzluksizligi, uslubiy ko'rsatma va tavsiyalar) ni aniqlab olish;

- O'zbekistonda naqqoshlik san'ati va yetakchi naqqoshlar tarixi va rivojlanishi o'rganish;

- Naqsh atamaları va turlari, naqqoshlikda foydalaniladigan materiallar va asboblarning tuzilishi, ishlatilish sohalarini aniqlash;

- Kompyuter texnologiyalari – ta'lim samaradorligini oshirishning eng sifatli bosqich jarayoni ekanligini o'rganib chiqish;

- Kompyuter texnologiyalaridan foydalanib madohil va girih naqshlarini chizish bosqichlarini o'quvchilarga o'rgatish usul va uslublarini ishlab chiqish;

- o'qitishning eski usul va uslublaridan asta -sekinlik bilan voz kechish, yangi innovatsion uslublarni qo'llash imkoniyatini bilish va yaratish;

- fan mavzusini kengroq tushunish va xayotimizning turli jabhalarida (umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar ta'limi, ilmiy - tadqiqot faoliyati, ishlab chiqarish va hokazo) larida amaliyotga qo'llash yuzasidan qo'shimcha ma'lumotlar tayyorlash;

- o'quv jarayonida talabalarning izlanuvchanlik, qiziquvchanlik xususiyatlarini oshirish maqsadida fanning mavzusiga kiritish uchun qo'shimcha ravishda vaziyatli (muammoli) matnlar, amaliy ish topshiriqlari, ko'rsatmali ma'lumotlar uchun stend, test -savollari tayyorlash;

- amaliy san'at mutaxassislarini tayyorlashda o'rganiladigan naqshlar ketma-ketligi aniqlanib, ulardan oxirgi maqsadga erishish uchun foydalana olish va shu kabilar;

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda tadqiqot mavzusini “Naqsh kompozitsiyalarini kompyuter texnologiyalari asosida tuzishni takomillashtirish” deb nomladik.

Tadqiqot ob'ekti (manbai): kompyuter texnologiyalaridan foydalanib naqsh kompozitsiyalarini bosqichma-bosqich chizish asoslari.

Tadqiqot maqsadi: kompyuter texnologiyalarining ta'lim tizimidagi ahamiyati, naqsh kompozitsiyalarini tuzishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanib Power Point dasturida taqdimot yaratish va o'quv jarayonigaga joriy etish.

Tadqiqot predmeti: naqsh kompozitsiyalari tuzishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanib yaratishning ilmiy-nazariy asoslari.

Ilg'or pedagoglar ish tajribasini va ularning informatsion hamda kasbiy savodxonligini o'rganish, shuningdek amalga oshirilgan asoslovchi bosqich tadqiqotlarimiz asosida **ilmiy farazini** quyidagicha shakllantirdik.

Naqsh kompozitsiyalarini kompyuter texnologiyalari asosida tuzishni takomillashtirishda o'quvchilarning axborotli-o'quv malakalarini shakllantirish muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin, agarda:

- naqsh kompozitsiyalarini tuzish jarayonida o'quvchilarning yangi axborot texnologiyalari bilan ishlash ko'nikma va malakalarini og'ishmay shakllantirganda;
- ijtimoiy etuk raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlashning zamonaviy texnologiyasida informatsion texnologiyalar yordamidagi o'qitishni optimal variantlarini topish uslublaridan samarali foydalana olsa;
- o'quvchilardagi o'zlashtirish darajasini aniqlash va uning monitoringini kuzatib borish uchun mos ravishda mezonlar hamda bilim va malakalarni egallash sifatini xolisona baholash uchun test -savollar tizimlarini tayyorlay olsa;
- o'quvchilar o'quv jarayonini kompyuterlashtirishda erkin harakat qila oladigan va bu asosda aniq natijalarga erishib, o'z kompyuter savodxonligiga to'liq ishonch hosil qilganda;
- o'quvchilar kompyuter savodxonligi bilan naqsh chizish malakalari orasidagi aloqadorlikni ta'minlashning optimal variantlarini topganda.

Tadqiqot maqsadi va ilmiy faraz mazmunidan kelib chiqib quyidagi **vazifalarni** belgiladik:

- O'zbekistonda naqqoshlik san'ati va yetakchi naqqoshlar tarixi va rivojlanishi yoritish;
- Naqsh atamalari izohlash, naqsh turlarini o'rganib chiqish, naqqoshlikda foydalaniladigan materiallar va asboblarning qo'llanilishi, tayyorlanish texnologiyasini ishlab chiqish;

- Kompyuter texnologiyalarining ta'lim tizimidagi o'rni, kompyuter tizimini naqsh chizish amaliyotga joriy etish dasturini o'rganib chiqish va ulardan foydalanish mezonlarini tayyorlash;

- Naqsh chizishda kompyuter texnologiyalarini qo'llashning pedagogik samaralarini aniqlash va tahlil qilish.

Tadqiqot ushlari; ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik, ilmiy-uslubiy, yozma manbalarni o'rganishda qiyosiy tahlil; tuzatish, anketa, suhbat, test-so'rovlar o'tkazish; olingan natijalarni YaAT vositalari yordamida qayta ishlash, tahlil qilish va umumlashtirish.

Tadqiqotning metodologik asoslari: dialektik bilish nazariyasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda Respublika hukumatining Oliy ta'limni tashkil etish va rivojlantirish sohasidagi qaror va buyruqlari, DTS va mavzuga oid pedagogik-psixologik, ilmiy-metodik manbalardagi nazariya va amaliyoti uyg'unligi; shaxs kasbiy sifatlarini rivojlanishida axborotli muhitning roli; barkamol shaxs tarbiyasining rivojlanishida Kadrlar tayyorlash milliy dasturidagi g'oyalari; kasbiy va pedagogik ta'limning nazariy va amaliy asoslari.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati;:

- Naqshlar chizish va uni takomillashtirishning axborotli-o'quv muhitini tayyorlash zamon talabi ekanligi asoslandi;

- Naqsh elementlarini chizishda kompyuter texnologiyalarida maxsus dasturlar o'rganib chiqildi va uni kelgusida bo'lajak amaliy san'at o'qituvchisi sifatida o'quvchilarga o'rgatish imkoniyati yaratiladi;

Tadqiqot natijasi "Amaliy san'at" haqida talaba va o'quvchilarda etarli bilimlarga ega bo'lgan holda ta'lim tizimida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, ularning qiziqishlarini oshirish, kompozitsiyalarni yuqori aniqlikda bajarish, chizish jarayonida vaqtning tejalishi, ranglar palitrasidan foydalanib, naqshlarga istalgan koloritli gamma ranglar berish, uch o'lchamli tayyor holatni ko'rsatish, o'quvchilarda kompyuter savodxonlik va malakalarni oshirish kabi ilmiy metodik tavsiyalar bilan boyitildi. Shuningdek, O'zbek xalq amaliy

san'atining namoyondalari va ularning asarlarini kuzatgan va o'rganilgan holatda o'rganuvchilarni axborotli-o'quv shakllantirishning mazmuni, shakli, metodlari, hamda psixologik va pedagogik yo'llari tizimini aniqlab berildi. Tadqiqot natijalaridan san'at kollejlari uchun dastur yaratuvchi mutaxassislar keng foydalanishlari mumkin. Shuningdek, amaliy san'at fakultetlari, o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida metodik tavsiya sifatida foydalanishi mumkin.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati:

- naqshlar chizishda axborotli ta'minot roli va o'rni belgilab, asoslab berildi;
- yangi axborot texnologiyalarining talabalar ijodiy faoliyatini takomillashtirishning ijtimoiy zarurati, shakllari, vositalari asoslandi;
- "Naqqoshlik" kursini o'qitishni axborotlashtirishning pedagogik va tashkiliy omillari belgilab berildi;
- "Naqqoshlik" kursini o'qitishda YaAT larni qo'llash va ular asosida o'qitish metodologiyasi ishlab chiqildi;
- "Naqqoshlik" kursini o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning usullari va vositalari belgilab berildi.

Tadqiqotning tajriba-sinov maydoni. Samarqand Qurilish va milliy hunarmandchilik KHK va San'at kollejlarida o'quv tarbiya -jarayoni.

Tadqiqot natijalari quyidagi anjumanlarda ma'ruza qilindi va muhokamadan o'tkazilib ma'qullandi: A.Navoiy nomli Samarqand Davlat universiteti magistrantlarining an'anaviy XII-XIII ilmiy-amaliy anjumanlarida (Samarqand. 2010-2012 yillar).

Dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi:

Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, umumiy xulosalar, 75 nomdagi foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va 4 nomdagi ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 85 sahifani tashkil etadi.

I-Bob. O'zbekistonda naqsh san'atining rivojlanishi va taraqqiyoti

1.1.-§. O'zbekistonda naqqoshlik san'ati va yetakchi naqqoshlar tarixi va rivojlanishi

O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san'ati madaniy merosimizning asosiy qismini tashkil etadi. O'zbek diyorida vujudga kelib, gullab yashnagan amaliy san'at turlari bemisil va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bu taraqqiyot bosqichi haqida fikr yuritar ekanmiz, O'zbek amaliy bezak san'atining kelib chiqishi insoniyatning ilk davri, ya'ni ibtidoiy jamoa davriga borib taqalishining guvohi bo'lamiz.

O'lkamiz zaminidagi arxeologik qazishlar natijasida topilgan yodgorliklarning guvohlik berishicha, insonning jismga badiiy ishlov berish usulida buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlanib, asrlar osha hozirgacha davom etib kelmoqda.

Bizgacha ibtidoiy jamoa tuzumida ashyoviy dalillar -mehnat va ov qurollari, uy-anjom va bezak buyumlari, odamlar yashagan manzil qoldiqlari yetib kelgan. Tuproq ostida qolib ketgan tarixiy yodgorliklar odam va hayvonlar jasadining qoldiqlari, Qor va yerto'la devorlariga chizilgan surat va bo'rtma tasvirlar ibtidoiy jamoa davri tarixini o'rganishning muhim manbai hisoblanadi.

Paleolit davrida amaliy-dekorativ san'at namunalari ham keng tarqala boshladi. Buyumlarni naqsh bilan bezashga, turli taqinchoqlarga, tumorlarga ehtiyoj paydo bo'lganligi arxeologlar tomonidan topilgan ashyoviy buyumlarda namoyon bo'lmoqda. Odamlarning o'troq holga o'tishlari, tabiat qonun-qoidalarini kuzatish simmetriya, ritm, shakl tuyg'ularini o'sishiga sabab bo'ldi. Bir xil elementlarning tekis qaytarilishi yoki oralab kelishi asosida vujudga keladigan o'ziga xos naqqoshlik san'atini maydonga keltirdi. Naqqoshlik yangi tosh (neolit) asrida keng yoyildi, dekorativ-amaliy san'atning taraqqiy etishga ta'sir ko'rsatdi va yordam berdi. Kulolchilik va boshqa buyumlarni naqsh bilan bezash keng tus oldi. Parallel, spiralsimon

va to'liqsimon chiziqlar, aylanalar shu davrdagi ko'pgina naqshlarning asosini tashkil etadi. Geometrik naqshlar asta-sekin sxematik odam, hayvonlar va o'simliklar dunyosidan olingan shakllar bilan boyitilib, mazmunan kengayib bordi. Uning elementlari koinot kuchlarining ramziy belgilarini aks ettira bordi. Masalan, rozetka-quyosh ramzi, to'liqsimon chiziq- harakat, suv ramzi va hokazo.

Naqqoshlik san'ati endilikda dekorativ funksiyani bajaribgina qolmay, balki shu bilan birga, kishilarning Qoyaviy va falsafiy tushunchalarni ham ifodalay boshladi.

Bronza asrida O'rta Osiyoda kulolchilik yanada rivojlandi. Kulolchilik dastgohlarining yuzaga kelishi esa, yaratilgan buyumlarning yanada nafis va go'zal bo'lishini ta'minladi. Chustdan topilgan qizil fonga qora bo'yoqlar bilan rasm va naqshlar ishlagan sopol buyumlar diqqatga sazovordir.

Temir asrida ham dekoartiv-amaliy san'at yetakchi o'rinni egallaydi. Bezash ishlarida geometrik naqshlardan tashqari, syujetli kompozisiyalardan foydalanish alohida rivojlangan.

O'rta Osiyoning qadimgi davri san'ati va madaniyatini o'rganishda yer ostidan, qabrlardan topilgan turli dekorativ amaliy san'at namunalari, jang, ov va mehnat qurollari ham muhim rol o'ynaydi. Sopol buyumlar, bronza, oltin, kumushdan ishlangan, kishilar ehtiyoji uchun ishlatiladigan buyumlar yuzasi naqshlar bilan bezatilgan, bo'rtma tasvir va haykallar bilan pardozlangan. Ayrim buyumlar yuzasiga esa hayotiy voqyealar aksi tushirilgan. Ana shu daliliy materiallar o'tmish san'ati va madaniyati, kishilarning estetik, badiiy qarashlarini bilishga xizmat qiladi.

O'zbekiston hududida arxeologik qazilmalardan Xorazm, So'g'd, Baqtriya va boshqa viloyatlarda naqqoshlik san'atining rivojlanganligi ma'lum. Surxondaryo viloyatidagi Fayoztepa (I-IIasr), Dalvarzintepa (I-asr) budda ibodatxonalari qazilmalaridan topilgan rasm, naqsh qoldiqlari buning yaqqol dalilidir.

Eramizdan avvalgi IV-VI asrlarda O'rta Osiyodagi badiiy hayot va madaniyatni tushunishda Amudaryoning yuqori oqimi tomonidan topilgan "Amudaryo boyligi" (Oks boyligi) muhim o'rinni egallaydi. Hozirgi kunda Londondagi Britaniya muzeyida saqlanayotgan bu yodgorliklar ichida oltindan yasalgan haykallar, turli ko'za, bilaguzuk, uzuk, muhr, tangalar, oltindan yasalgan arava va qurollar diqqatga sazovordir.

Buyuk sarkarda Iskandar Zulqarnay (Aleksandr Makedonskiy) eramizdan avvalgi IV asrlarda Axmoniyilar davlatini tor-mor etib, O'rta Osiyo yerlarining ko'pgina qismini o'ziga qaratib oldi. Faqat Xorazm, Farg'ona va Sirdaryo bo'yidagi ko'chmanchi qabilalargina o'z mustaqilligini saqlab qoldi.

Amaliy san'atga bu qadar chuqur falsafiy yondoshish natijasida shartlilik, stilizasiya - ramziylikka asoslangan badiiy bezak asarlari yaratish kuchaygan. Ushbu tarixiy omil o'zbek milliy bezak san'atining gurkirab rivojlanishiga turtki bo'lgan va hozirda jahonga mashhur me'morchilik yodgorliklarimiz ulardagi ganchkorlik, koshinkorlik, naqqoshlik, xattotlik, toshtaroshlik va boshqa turdagi san'atlarning ajoyib darajada uyg'unligidan va mujassamligidan dalolatdir. Xalq amaliy bezak san'ati kishilarning ma'naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham o'zbek xalq amaliy san'ati kishilarni badiiy- ahloqiy, umuminsoniy tarbiyalab, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishda, hamda madaniy darajasini oshirishda eng zarur manbalardan biri hisoblanadi.

Yaqin o'tmishda o'zbek amaliy bezak san'atining eng rivojlangan naqqoshlik, ganchkorlik, tosh va suyak o'ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, bo'yrachilik, zargarlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilamdo'zlik, kigizchilik, savatchilik kabi turlarining o'ziga xos bajarish texnologiyalari, haqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalar, bu san'atlarga xos maktablar, uslublar hamda shu sohalarda nom qozongan ustalarning xizmatlari butun jahonga dong'i ketgan.

O'rta Osiyo naqqoshlik san'ati qadimdan dunyoga mashhur. O'tmishda ota-bobolarimiz qurgan muhtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo'qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar hozirgacha bizni hayratga solib kelmoqda. Naqsh arabcha tasvir, gul degan ma'noni bildirib, u qush, hayvonot, o'simlik dunyosi, geometrik va boshqa turli shakllarning ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir.

Islom talablariga buysunish oqibatida jonivorlar, parrandalar va odamlarni tasvirlash yo'qolib borib naqqoshlik rivoj topdi. Arab yozuvi o'zlashtirildi. Natijada naqshlar bilan unvonli yozuv (epigrafika) uslubi paydo bo'ldi. Arab yozuvi naqshlar bilan birga chizildi. Arab yozuvi ham bezak, ham duo-afsunlar vazifasini bajardi.

Naqqoshlik xalq-amaliy bezak san'atning bir turi sifatida qadimdan o'zbek madaniyatining muhim bo'lagi hisoblanadi. Ko'p asrlar mobaynida uning badiiy an'analari vujudga keldi va rivojlandi. Naqshlarda san'atning boshqa hamma turlaridan farqli ravishda avlodlarning chambarchas bog'liqligini, milliy an'analarning davomiyligini ko'rish mumkin. Naqqoshlik an'analari san'atning ana shu turini o'rganish metodlari sifatida ham bobodan otaga, otadan o'g'ilga o'tib kelgan. Ana shu davomiylik tufayli naqqoshlik san'ati hozirgacha saqlanib kelmoqda. Naqshning eng yaxshi namunalari boy ijodiy fantaziya orqali birlashtirilgan shakllarning maqsadga muvofiqligi va go'zalligi bilan farqlanadi. Bunda xalq ustalarining atrof muhitga qarashlaridagi tafovut aks etadi. Naqshdagi chizgilar o'yini musiqadagi ohang singari, qo'shiq va ertak kabi "xalq hayotiy tajribasining katta umumlashmasidan" tarkib topgandir.

Badiiy naqqoshlik ranglarning uyg'unligida va o'ziga xos kompozisiyalarda go'zallik yaratish san'atidir. Naqqosh usta o'z ishida ranglarning tabiiy jilosidan va uyg'unligidan, bejirim shakldan, material fakturasidan mohirlik bilan foydalanib yorqin ifodalikka erishadi.

O'zbekistonning an'anaviy me'morchiligida naqqoshlik asosan shiftlarni, jimjimador araqilarni, saroy ustunlarini, masjidlar, maktablar,

boylarning uylari, yog'ochdan yasalgan buyumlarni bezashda qo'llangan. Nozik o'simliksimon-geometrik naqshdagi o'zaro singib ketgan novdalar, shoxlar va hashamatli tasvirlangan gullarning ritmik harakati, o'zbek ustalarining ishlaridagi islami va girih naqshlarining klassik motivlari shiftlarning shakliga moslangan. Naqsh ko'proq interyerlarni va yopiq ayvon, peshayvonlarni bezashga xizmat qiladi.

Hozirgi paytda naqshdan me'morchilikda, uy jihozlari, sovg'alar, mayda yog'och o'yinchoqlar, musiqa asboblari va turmushda kerakli buyumlarni bezashda foydalaniladi.

Badiiy naqqoshlik san'ati hozirgi kunda keng tus olmoqda. Matbuot, radio, televideniye, kino orqali kishilar ana shu san'at namunalari va uning xalq ustalari bilan tanishmoqdalar. Bu san'atkorlar orasida O.Qosimjonov, Ye.Raufov, A.Boltayev, S.Norqo'ziyev, A.Azimov, A.Isayev, B.Abdullayev, T.To'xtahojayev, J.Xakimov, Z.Bositxonov, M.To'rayev, T.Ahmedov, K.Karimov, A.Ilhomov va boshqalar bor. Xalq ustalarimizning, ulardan ta'lim olgan shogirdlarning ishlarini Toshkentdagi amaliy san'at muzeyida, ko'rgazma zallarida, badiiy salonlarda, shuningdek, turar-joy va jamoat binolarida, masalan, Toshkent Davlat sirki, Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri, Milliy akademik drama teatri, Temuriylar tarixi muzeyi, Oliy Majlis va Shahar Hokimiyati binolari, metro stansiyalari, mehmonxonalar, kabi ma'muriy va maishiy inshootlarda ko'rish mumkin. Hozirgi vaqtda maktablarda va maktabdan tashqari muassasalarda to'garaklar tarmog'ini iloji boricha kengaytirish vazifasi qo'yilmoqda. Xalq naqqoshlik san'atini o'rganish o'quvchilarda badiiy didni, mehnatsevarlikni rivojlantirishga va qator foydali bilim hamda malakalarni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Ularning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va o'stirishga yordam beradi.

Naqqoshlik maktablari. Xonliklar davrida xalq amaliy san'ati ustalari Xiva, Qo'qon, Buxoro, Samarqand kabi shaharlarga yig'ila boshladilar. Ko'pincha Farg'ona va Buxoro naqqoshlari Samarqandga, Qo'qon, Marg'ilon ustalari Toshkentga kelib ko'pgina binolarni bezar edilar. Bu esa

naqqoshlik maktablarining yanada rivojlanishiga, o'ziga xos kompozisiyalarning yaratilishiga, ranglar majmuasini yanada boyitishda juda katta rol o'ynaydi. Lekin bu naqshlar bir-biriga o'xshasada, har bir naqqoshlik maktabi o'zining alohida kompozisiyasi, ish uslubi, rang koloriti bilan ajralib turadi.

Toshkent naqqoshlik maktabi. Toshkent naqshlari o'zining nafisligi va ranglarning bir-biriga asta-sekin o'tishi, aniq bir koloritga qat'iy rioya qilinishi, geometrik va o'simliksimon naqshlarning ko'p ishlatilishi bilan ajralib turadi. Naqshlar ko'pincha yashil gammada ishlanadi. Islimiy naqshlarda oygul, paxta, bofta, uch barg, shukufta, bargli gul va boshqa elementlar aniq stillashtirilgan murakkab girih naqshlari ham keng qo'llanilgan.

Naqqosh ustalardan Olimjon Qosimjonov, Yoqubjon Raufov, Jalil Hakimov, Toir To'xtaxo'jayev, Zokir Bositxonov, Maxmud To'rayev, Anvar Ilhomov, Komil Karimov, va boshqalar Toshkent naqqoshlik maktabi asoschilaridirlar.

Yo.Raufov tojik naqqoshlik maktabining ananalarini saqlagan holda ajoyib kompozisiyalar yaratgan. Ijodkor o'zbek-tojik naqshlarining boy madaniy merosidan mohirona foydalanib, ko'pgina islamiy va geometrik naqsh kompozisiyalarini yaratdi. Uning naqshlari ranglarining yorqinligi hamda bir-biriga uyg'unligi bilan ajralib turadi. U o'z kompozisiyalarida yangi-yangi elementlarni kashf etgan. Yo.Raufov naqshlarni bo'rttirib, kundal texnikasidan ham foydalandi. T.To'xtaxo'jayev murakkab uslubdagi naqsh kompozisiyalarini tuza olgan. Ustaning oltinsimon-jigarrang koloritdagi naqshi Toshkent naqqoshlik maktabining rivojlanishida qo'yilgan yangi bir qadam bo'ldi.

O'zbek naqqoshlik maktabini rivojlantirishda samarali hissa qo'shgan Olimjon Qosimjonovning talantli shogirdi, naqqoshlik bo'yicha o'ziga xos maktab yaratgan, juda ko'p shogirdlarning ustoz - O'zbekiston xalq rassomi Jalil Hakimovdir. Ota-bobolarimizni qadimdan yaratib kelgan naqshlarini

qayta tiklashda ustaning xizmatlari kattadir. J.Xakimovning naqshlarini e'tibor berib kuzatsak, undagi naqshlar elementlarga boyligi, aniq, rovonligi, yorqin yashil koloritda bo'lishi bilan ajralib turadi. U gulli girih kompozitsiyalarini juda ko'p ishlagan. J.Xakimov o'zbek milliy naqqoshlik san'ati an'alarini puxta egallagan, uni samarali davom ettirgan san'atkordir. Usta naqshlagan xontaxta, kursi, quticha va boshqa buyumlar dunyoning ko'pgina davlatlarida yuqori baholangan. Uning ijodi Sharq an'alari ruhida rivojlandi, tarixda o'chmas iz qoldirdi.

Xiva naqqoshlik maktabi. Xiva naqshi Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Buxoro naqshidan tubdan farq qiladi. Xiva naqshida asosan zangori va yashil ranglar juda ko'p ishlatilgan. Islimiy naqsh kompozitsiyasida novda, marg'ula, shukufta, barg, no'xat, gul, oddiy oyguldan tashkil topadi. Ko'pincha yulduz hosil qiluvchi girihlar ishlatilib, orasi spiralsimon islamiy naqsh bilan boyitilgan. Xiva naqshlari umuman madoxilli naqshlar asosida tuziladi. Islimiy naqsh esa spiralsimon mayda qilib ishlanadi. Xiva naqqoshlik maktabining yorqin namoyandalari Abdulla Boltayev, Ro'zimat Masharipov, Odamboy Yoqubov, Eshmurod Sapayev va boshqalar.

Buxoro va Samarqand naqqoshlik maktablari. Buxoro naqshi kompozitsiyalarining murakkabligi va jozibadorligi bilan ajralib turadi. Buxoro naqshlarida murakkab girihlar aniq va puxta o'lchamda ishlatilishi, o'simliksimon naqshlarning yaproq, meva, gul barglar ritmiga alohida e'tibor berilishi bilan farqlanadi.

Samarqand naqshlari Toshkent, Farg'ona naqshlariga o'xshab ketadi. Samarqand naqshlari o'ta guldorligi, barg va gullarining o'ta harakatchanligi, jonliligi bilan farq qiladi. Naqshlar avval zangori, keyin esa yashil rang gammasida ishlangan.

Usta Rahmonqul, usta Jamoliddin, usta Abduzoxid, usta Sharif, usta Alimjon, usta Boqi, keyinchalik usta Jalol va Bolta Jalilovlar kabi

naqqoshlar Samarqand naqqoshlik maktabini yaratilishiga asos soldilar va uning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdilar.

O'zbekiston xalqlarining tarixi, qadriyatlari, ilm-fan madaniyati durdonalarini har tomonlama ilmiy o'rganish va tahlil etish Qoyat muhimdir. "Bugun bizning oldimizga shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, - degan edi Prezidentimiz I.A.Karimov, - biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizilarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga qaytib, o'tmishdagi boy an'analarni yangi jamiyat qurilishiga tadbiq etmog'imiz kerak". Shu maqsadda respublikamiz hukumatining qator hujjatlari Vatanimizning har tomonlama jahon andozalari asosida rivojlanishga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, milliy san'atimiz namunalaridan, otabobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo'lgan ajoyib san'at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda.

Ajdodlarimiz tajribalari yoritilgan adabiyotlarni ham yetarli deb bo'lmaydi. Bundan tashqari ajdodlarimiz boy tajribalarini hozirda hunar o'rgatilayotgan joylarda chunonchi: oliy o'quv yurtlari, o'rta maxsus kasbhunar ta'lim muassasalarida, shaxsiy usta-shogird asosida o'rgatilayotgan ustaxonalarda, qo'shimcha ta'lim muassasalarida usta va shogirdni sharqona odobi to'liq o'rgatilmashligi o'quvchi-yoshlarimizni ahloq-odobiga va bilim darajasiga, umuman ular ma'naviyatining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'satatayotganligining guvohi bo'lamiz.

Shuning uchun ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosidan to'g'ri va unumli foydalanish lozim. Shunda ajdodlarimiz ma'naviy merosiga bo'lgan hurmat-e'tibor kuchayadi; o'z ota-onasiga, ustoziga, o'rtoqlariga, xullas, insonlarga bo'lgan hurmati oshadi; ularning shu hunarni qiyomiga yetkazib o'rganishlarida asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek xalq amaliy san'ati qadimiyligi, madaniyatining boy hamda serqirraligi bilan butun dunyoga mashhurdir. Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Toshkent, Farg'ona va boshqa shaharlardagi har bir tarixiy obida,

har bir xalq amaliy bezak san'ati namunasi ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan takrorlanmas, bebaho san'at asarlari bo'lib, jahon madaniyati dundonalari qatoridan o'rin olgan.

Asrlar davomida orttirilgan madaniy va ma'naviy boyligimiz, xususan, o'zbek xalq amaliy bezak san'atining eng ko'p rivojlangan turlari: naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, toshtaroshlik, suyak o'ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, zargarlik, kashtachilik, ustalarning haqiqiy asl nomlari, o'ziga xos maktablari, yaratgan uslublari sobiq Sho'ro tuzumi davrida asta-sekin yo'qolib ketish xavfi ostida qolgan edi.

Bugungi kunda mustaqil respublikamizda xalqimizning asrlar bo'yi yaratgan ijodiy mehnati natijasida yaratgan amaliy bezak san'atini ko'z qorachig'iday saqlash, qadrlash, ulardan amaliy foydalanish, ular orqali yoshlar estetik didini o'stirish hamda yuksak madaniyatli kishilar qilib tarbiyalashga keng imkoniyatlar ochildi. Al-Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Imom Buxoriy, Bahovuddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Zahiriddin Bobur kabi jahonga mashhur olim, shoir va musavvirlar go'zallikka intilishga chaqirganlar. Bobomiz Amir Temur hunar va ilm egalari, yirik mutaxassis olimlar yordamiga tayanib matematika, geometriya, me'morchilik, astronomiya, adabiyot, tilshunoslik, tarix, musiqa, tasviriy san'at va xattotlik kabi sohalarni rivojlantirishga katta axamiyat berdi. Shaharlarning har tomonlama chiroyli va ulug'vor qilishga intilgan.

IX-X asrlarda Turonda naqqoshlik san'ati jadal rivojlandi. Me'morchilikda g'isht qadab naqsh solish yuksak darajada taraqqiy etdi. Binolarning ichki tomonlariga ganch, yog'och o'ymakorligini qo'llash yuksak rivoj topdi. Ayniqsa, maqbaralarning peshtoqlari devor va ravoqlari ganch naqshlar bilan juda nafis bezatilgan.

Amir Temur, Alisher Navoiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Nizomiy Ganjaviy, Nosir Hisrav, Kamoliddin Behzod, Maoniy, Firdavsiy, Umar Hayyom, Bobur kabi jahonga mashhur olim, shoir va naqqoshlar

binolarimizni kishilar hayolini o'ziga tortuvchi, tabiatning go'zal manzaralariga monand naqshlar bilan bezashga chaqirganlar. Kishilarni go'zallik bilan yaqin do'st, birodar bo'lishga undaganlar.

Chunonchi, Samarqandning eski shahar markazi, ya'ni Registonda savlat to'kib turgan Sherdor madrasasiga bir nazar solaylik. Uning peshtoqlari, bahaybat gumbazlari va chiroyli minoralari, rang-barang sirli koshinlari hamda nafis, hashamatli, dabdabali ishlangan jimjimali qoplamasi kishini hayratga soladi. Ushbu madrasa boshqa me'moriy yodgorliklar singari o'z mazmuniga va tarixiga ega.

Buxorodagi Ashtarxoniylardan Muhammad Imomqulixon davrida xonning eng ishonchli hamda yaqin kishi, ya'ni Samarqand hokimi Yalangto'shbiy Bahodir nihoyatda boyib ketgandan so'ng, Samarqand Mirzo Ulug'bek nomidagi madrasaning qarshisida 1629-1636 yillarda zamonasini, mu'jizasi hisoblangan Sherdor madrasasini qurdirgan. Bu ajoyib bino shaharning ko'rkiga ko'rk qo'shib, barcha shoiru-olimu, ulamo-yu fuzalolar va shahar xalqining olqishiga sazovor bo'ladi. Yalangto'shbiy Bahodir me'mor Abdu Jabbor oldiga hyech bir narsada o'zining ulug' ajdodlaridan qolishmasligini naqsholar orqali xalqqa yetkazish vazifasini qo'ygan. San'at kalitini egallagan mashhur me'mor o'z oldiga qo'yilgan falsafiy fikrni naqsh tili bilan xalqqa unsiz ovozda yetkaza bilgan. Sherdor madrasasining bosh fasadi jozibali chiqqan bo'lib, uning peshtoqi mutanosib (simmetrik) qilib ramziy naqshlar bilan bezatilgan, qizg'ish zarhal yo'lbarssimon sherlar nozik ohularga quvib yetib tashlanayotgan va ularning yurtidan kulib turgan odam qiyofali quyosh esa zarhal yog'du bilan hoshiyalangan. Ularning atroflariga islamiy naqshu nigorlar ishlangan.

Tasvirda epchil, kuchli, yengilmas sher ramziy ma'noda Yalangto'sh Bahodirga ishora qilingan, uning muqoyasi qilib kuchsizlik ramzi tariqasida ohu tasvirlangan. Quyosh esa o'sha davr va hayot ramzi tariqasida olingan. Zangori rangli koshinlar orqali koinotni va tinchlikni, noziklik o'simliksimon gul naqshlar orqali bog'u bo'stonni, tabiatni aks ettirgan.

1.2. Xalq amaliy san'atida naqsh kompozitsiyalari va ularning turlari

Naqshlar buyumga, devorga yoki biror joyni bezamasin o'ziga xos uslubiga, texnologiyasiga va mazmuniga ega bo'ladi.

Naqshning o'zi nima? Uning qanday turlari bor? Naqsh tili deganda nimani tushunasiz?

Naqsh - arabcha tasvir, gul degan ma'noni anglatadi. Qush, hayvon, o'simlik, geometrik va boshqa elementlarni ma'lum tartibda takrorlanishdan hosil qilingan bezakdir. Ganchkorlik, kandakorlik, kashtado'zlikda, zardo'zlik, kulolchilik, zargarlik, gilam to'qish, yog'och o'ymakorlik va hokazolarda har xil yo'llar bilan naqshlar ishlanadi. Masalan: o'yib, chizib, chok yordamida, zarb bilan qadab va boshqa usullarda naqsh solinadi.

Ganch o'ymakorligida ishlatiladigan naqshlar mazmuniga ko'ra- o'simliksimon, geometrik, gulli girih, ramziy va boshqa turlarga bo'linadi.

O'simliksimon naqsh: tabiatdagi barg, band, daraxt, buta, g'uncha va boshqa narsalarni naqqosh tomonidan stillashtirib olingan shaklini ma'lum qonuniyatlar asosida takrorlanishidan hosil qilingan. Geometrik naqsh turlaridan biri girih bo'lib chigal, tugun ma'noni anglatadi. O'andasiy naqsh murakkab naqsh turi. Geometrik naqsh murakkab naqshdan biri bo'lib to'rtburchak, uchburchak, aylana va yoylardan ko'pburchaklardan iborat bo'ladi. Tuzilishi jihatidan to'g'ri chiziq va aralash chiziqlardan tashkil topgan girihga bo'linadi. geometrik naqsh uzluksiz rapportlardan tashkil topgan bo'lib, har bir rapport o'z tuzilishiga ega bo'ladi. Yevropada arabeska deb yuritiladi.

Gulli girih: o'simlik va geometrik naqsh elementlaridan tashkil topgan. Uning elementiga yuqorida sanab o'tilgan geometrik va o'simliksimon naqshlar kiradi.

Ramziy naqshlar: esa kabutar, sher, baliq, davlat gerbi va boshqalarni stillashtirib tasvirlangan naqsh elementlaridan tashkil topgan.

Stilizasiya - o'simlik va xayvonot dunyosi butalar, novdalar, shoxlar, barglar, gullar, meva shakllarini qayta ishlashdir. Naqqoshlik san'atining ildizi juda qadim o'tmishimizga borib taqaladi. Insoniyat o'zi uchun zarur bo'lgan

jamiki buyumlarni badiiy bezab, takomillashtirib kelgan. Oddiy ro'zg'or buyumlaridan tortib, kiyim-kechak, kitob, bino bezaklari hamma-hammasi naqsh elementlari yordamida bezatiladi. Xalq amaliy san'atidagi bezak elementlari tabiatda uchrovchi o'simlik dunyosi, gul, novda, barg va hayvonlar tasvirini eng soda ko'rinishidagi aksidir.

Naqshni chizishda, asosan ikki manbadan – tabiiy va geometrik shakllardan foydalaniladi. O'simliklar, xayvonlar va qushlar naqsh san'atining tasvir obyektidir.

Ma'lumki, har bir naqsh namunasi o'ziga xos naqsh elementlarining yig'indisidan iborat. Stilizasiya o'simlik va hayvonot dunyosidan olingan turli shakllar masalan, butalar, novdalar, shoxlar, barglar, gullar, mevalar va shu kabilarning tabiiy shakllarini qayta ishlash demakdir. Bunda tanlangan shaklni naqsh kompozitsiyasi tarkibiga qo'shish mumkin bo'lgan bezak shakliga keltiriladi. Bunda o'quvchi butun bir yaxlit predmetning tashqi ko'rinishlarini bir nechta badiiy chiziqlar yordamida aniq lo'nda qilib tasvirlashni o'rganadi. Xalq ustalari qadimdan qo'llab kelayotgan jami naqshlar tabiat hamda voqyelikning shartli tasviri bo'lishiga qaramasdan o'ziga xos qonun-qoidalarga ega. Bu qonun-qoidalar tabiatning o'zidan olingan. O'simliklar faqat bir tomonga qarab o'sadilar. Masalan, majnuntol xuddi pastga qarab teskari o'sayotgandek tuyuladi, lekin novdadan barg bo'lib, bir tomonlama yo'nalishda davom etib keladi. Tabiatning bu qonuni naqshda o'z aksini topgan. Usta chizadigan naqsh shunchaki qog'oz betini to'ldirish uchun emas, balki, ongli ravishda tabiat va badiiylik qonun-qoidalariga amal qilgan holda manzara tasvirini chizishdan iboratdir.

Badiiy naqsh ishlash jarayonida o'quvchilar quyidagilarni puxta o'zlashtirib olishlari zarur:

- atrof muhitdagi, tabiatda mavjud bo'lgan tabiiy shakllarni qayta ishlash, ya'ni stilizatsiyalash yo'llarini bilishlari, undan samarali foydalana olishlari;

- berilgan naqsh elementlari yoki namuna asosida yangi naqsh kompozitsiyasini tuza olishlari;

- mustaqil ravishda yangi naqsh kompozitsiyasini tuza oladigan bo'lishlari kerak.

Naqsh elementlari bilan tanishtiruv mashg'ulotlarida o'qituvchi o'quvchilarni tabiat qo'yniga sayohatga olib chiqadi va ular mashg'ulotlarda o'rgangan nazariy hamda amaliy bilim malakalari asosida, o'simliklar, hayvonot dunyosini kuzatadilar va “stilizasiyalashtirish” orqali ularning badiiy tasvirlarini, shakllarini hosil qilish bilan bevosita shuQullanadilar. O'quvchilarga maxsus ketma-ketlik asosida tuzilgan rangli yoki oq-qora foto-suratlardan va ko'rgazmali qurollardan foydalanish orqali tushunchalar berish ham yaxshi natija beradi.

Stilizasiya tabiatda uchraydigan o'simliklar, hayvonot dunyosini, uy-ro'zg'or buyumlarini tabiiy ko'rinishdan ancha soddalashtirib, eng ixcham ko'rinishlarda tasvirlash demakdir. Naqsh chizishni o'rganuvchilar ana shu usulni batafsil tushungan holda egallab olishlari lozim. Chunki ko'pgina naqsh kompozitsiyalari ana shu tarzda qayta ishlangan turli-tuman shakllar, tasvirlar yordamida hosil qilinadi.

Naqqoshlik mashg'ulotlari jarayonida naqsh elementlarini chizish va ularni hosil qilish tartiblari yo'llari va usullari o'zlashtirib boriladi. Dastlabki mashg'ulotlarda quyidagi naqsh elementlari chizib o'rganiladi:

- barglar (barg elementlarini chizish).
- gullar (gul elementlarini chizish).
- novdalar (novda elementlarini chizish).
- bog'lam va sirtmoq (ularni elementlarini chizish).
- tanob (tanob elementlarini chizish).
- marg'ula va kurtak (uning elementlarini chizish).
- madohil elementlarini chizish.
- gajak va jingalak elementlarini chizish.
- bofta va shkufta elementlarini chizish.

Odatda badiiy naqshlar chizishda ko'proq barg tasvirlaridan foydalaniladi. Bunda barg islamiy naqsh elementlari sirasiga kirganligi sababli nozik, nafis ko'rinishlarda tasvirlanadi. Naqqoshlar tol, anor, xurmo, bodom, sambit, xina, atirgul, uzumlar va shu kabilar barglarini stilizatsiyalashtirib, naqsh kompozitsiyasini tuzishda qadimdan foydalanib kelganlar.

Gullar - islamiy naqsh elementi bo'lib, naqshlarga tarqil pardozi berilganidan so'ng yanada ko'rk va husn bag'ishlaydi. Gul elementlari asosan naqsh shakllarining markaziy qismlariga joylashtiriladi. Gullarning ham behisob turlari mavjud bo'lib, o'ziga xos nomlar bilan ataladi. Gul turlariga oddiy va murakkab ko'rinishdagi oygul, lola, paxtagul, chinnigul, pistagul, kuvachagul, karnaygul, safsargul, atirgul, nargizagul va boshqa gul turlari kiradi.

Novda - o'simliksimon naqsh elementi sirasiga kiradi. Gul, barg, meva-barg va boshqa elementlarini o'zaro bog'lab biriktirib to'ldiradi. Namoyon ruta, morpech, munabbat, turunj va turli murakkab naqsh kompozitsiyalarida novda elementlari yakka va qo'sh bandlarda uchraydi.

Tanob - naqsh namunalari-dagi asosiy shakl yo'llarini yasaydi. Bunday shakl nomlari mehrob, medohil qalampir, gardish va shu kabilar bilan ataladi.

Madohil – islamiy naqsh elementi. Madohil lola, tumor, uchburchak ko'rinishini eslatuvchi shakllar misolida uchraydi.

Shkufra – islamiy naqsh elementi. Qisqacha shkufra deb ham ataladi. Shkufra asosiy shakl yasovchi elementlarni kurtak – gajak ko'rinishlarida o'zaro bog'laydi.

Ramziy naqshlar – kabutar, sher, baliq, davlat gerbi va boshqalarning stillashtirib tasvirlangan elementlaridan tashkil topadi.

Ota-bobolarimizning qadimiy obidalarini nafis naqshlar bilan bezar ekanlar zavq bilan bir qatorda ular orqali o'z orzu umidlarini, muhabbatlarini, tilaklarini kuylaganlar. Naqqosh, ota-bobolarimiz inson

ruhiyatini juda chuqur va har taraflama o'rganib ularni ajoyib naqshu nigorlar bilan boyitganlar. Naqshlangan uyda kishilar hotirjam, osoyishtalik o'Qushida bo'lishi, uzoq umr ko'rishni donishmand bobolar asrlar davomida hayotiy tajribalar asosida ilQaganlar. Naqqoshlik san'ati tilini bilish uchun naqshning har bir elementi va ranglarining ramziy alifbosini bilmoq kerak bo'lgan.

Islimi naqsh kompozitsiyalarini tuzish (yo'l, kvadrat, aylana, uchburchak va turli shakl yuzalariga). Xalq amaliy san'atining qaysi bir turi bo'lmasin, uning zaminida naqsh elementlaridan tuzilgan kompozitsiya yotadi.

Naqsh kompozitsiyasining bezak elementlari esa tabiatda uchrovchi gul, novda, barg, parranda va hayvonot dunyosini soddalashtirib tasvirlash natijasida hosil qilinadi.

Har bir voqa va shaharlarning naqsh kompozitsiyalari bir-biridan o'zaro ajralib turadi. Toshkent, Xorazm, Farg'ona, Samarqand, Buxoro naqqoshlik maktablarining o'z ornament va rang kolloritlari mavjud. Mustaqil naqsh tuzish jarayonida stilizatsiya orqali naqsh elementlari o'zaro birlashtiriladi. Naqsh bo'laklarining vazifalari va ravon chizilishiga e'tibor beriladi. Gul, barg, novda, bofta va qo'sh bandlik naqsh elementlaridan naqsh kompozitsiyasi tuziladi.

Talabalarning fantaziyalari, mavjud naqsh elementlarini ma'lum qonun-qoidalarga amal qilgan holda joylashtirishda ular ma'lum bilim va malakaga ega bo'lishlari lozimligini taqozo etadi. Birgina "Bodom", "Qalampir" nus'halari shaklidan naqqoshlik, zargarlik, kulolchilik, kashtachilik, zardo'zlik kabi xalq amaliy san'atida turli-tuman o'ziga xos naqsh namunalarini yaratish mumkin. Kompozitsiya tuzish yo'llari va ularning homaki namunalarini tayyorlash naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorlik va boshqa amaliy san'at turlari uchun umumiydek ko'rinsada, aslida qo'llaniladigan xom ashyosi, ijro pardoz turlari bilan farqlanadi.

Kompozisiya so'zi lotincha bo'lib "joylashtirish, qurish, tuzish" degan ma'noni anglatadi. Bunda tanlangan naqsh kompozitsiyasiga ko'ra uning elementlari qog'oz yuzasida bir-biriga bog'liq holda joylashib, yaxlit kompozitsiyani hosil qiladi. Tanlangan mavzu mazmuniga mos keladigan naqsh kompozitsiyasini tuzish uchun bir qancha homaki eskizlar ishlanadi va ulardan talabga javob beradiganlari tanlab olinib, kompozisiya tuzishda qo'llaniladi. Naqsh kompozitsiyalar tuzishda bo'laklarning o'rnini almashtirish, qo'shimcha detallar kiritish orqali uning mavzusini yanada boyitish kabilari ham muhim ahamiyatga egadir. Naqsh mavzusining ifodalashda kompozitsiyaning asosiy qonuniyatlariga rioya qilish lozim.

Kompozitsiyada naqsh yaratish muayyan qoidasini simmetriya, assimetriya, muvozanat, detallarning o'lchovi, shakli, rangi kabilarga rioya qilish tashkil etadi va bunga qat'iy amal qilinadi.

Mustaqil naqsh to'qish jarayonida o'quvchilar stilizatsiya orqali tuzilgan elementlarini o'zaro biriktiradigan naqsh elementlarining vazifalariga va ularning ravon chizilishiga e'tibor beradilar.

Mustaqil naqsh kompozitsiyasini tuzishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- Chizilajak naqsh kompozitsiyasini shakl, o'lcham va taqsimlarini mo'ljalga olish.
- Kompozitsiyaning yakka yoki qo'sh banddan iborat bo'lishligi nazarda tutilgan holda tanob (yasovchi) elementi shakllarini joylashtirish.
- Kompozitsiyaga novda, barg, gul va boshqa naqsh elementlarini kiritib mukammallashtirish.
- Davriy takrorlanish.
- Naqsh bandini bofta, shkufta elementlari bilan boqlab boyitish.
- Kompozitsiyaning asosiy shaklini umumlashtirib naqshni nomlash.
- Kompozitsiyaning ma'no va maqsadini hisobga olgan holda rang tuslarini aniqlash.
- Simmetrik joylashuv va ranglar mutanosibligini saqlash.

Yo'l, aylana, kvadrat shakllari uchun chiziladigan naqsh kompozitsiyalari ham ixtiyoriy ravishda mavjud naqsh elementlari birikmalaridan tuziladi.

Mustaqil naqsh to'qishni boshlashda o'quvchi ikki, uch va undan ortiq elementlar yordamida eng sodda naqsh kompozitsiyalarinilarini tuzishi mumkin. Bunda ixtiyoriy tanob shakli chiziladi va gul, novda, barg elementlari yordamida to'ldiriladi. Mavjud kompozitsiyani shakl yoki gul elementlari nomlari yordamida nomlash mumkin.

Yo'l, aylana, kvadratga chiziladigan naqsh kompozitsiyalarini ham ixtiyoriy ravishda mavjud naqsh elementlari birikmasidan tuziladi. O'ar qanday naqsh kompozitsiyalari pishiq va chiroyli chizilishiga ahamiyat berilishi kerak.

Elementlarning o'zaro tartibli joylashuvi naqshning jozibasini yanada oshiradi.

Mustaqil naqsh kompozitsiyasini tuzishda ham xalq ustalari ijodini kuzatish, xalq amaliy san'ati muzeyiga borish va nus'ha ko'chirish yaxshi samara beradi. O'quvchi qancha ko'p naqsh elementlarini yoddan chiza olsa, kompozitsiya tuzish shunchalik oson kechadi.

Sodda naqsh kompozitsiyasini tuzish.

Boshlang'ich sodda naqsh kompozitsiyalarini tuzish odatda talabalarda bu borada ayrim nazariy va amaliy tushunchalar, ish tajribalari hosil bo'lganidan so'ng mustaqil topshiriq sifatida berilishi mumkin. Dastlab talabalar buyum yoki yuza sirtini, uning o'ziga xos o'lchamlarini diqqat bilan ko'zdan kechirib, bo'lajak naqsh kompozitsiyasining shakl va elementlarini "xayolan" tanlab oladilar. Albatta, bu naqsh elementlari talabalar tomonidan qachonlardir o'zlashtirib olingan yoki kuzatilgan naqsh bo'laklaridan iborat bo'ladi. Bunda talabalarning tasavvurlari, ish tajribalari, fikr yuritishlari qanchalik yaxshi rivojlangan bo'lsa, shuningdek, xotiralari zahirasida qanchalik ko'p naqsh elementlari mavjud bo'lsa, ular ajoyib naqsh kompozitsiyalarini tuzishlari mumkin bo'ladi. Kompozitsiya rejasini tuzish va

chizish jarayonida shakl va zamin bo'yicha tarqaluvchi ranglar va elementlarning o'zaro mutanosibligi hisobga olinishi shart. Buning uchun dastlab naqsh kompozitsiyasining qoralama nusxasi chizib olinadi. So'ng, ana shu qoralama asosida har bir bo'lakka ishlov berilgan holda uning nus'hasi kerakli joylarga ko'chiriladi va yaxlit naqsh kompozitsiyasi tuziladi.

Naqshlar mazmuniga ko'ra o'simliksimon, girih, gulli girih, ramziy va boshqa turlarga bo'linadi. O'simliksimon naqsh tabiatdagi barg, band, daraxt, buta Quncha va boshqa narsalarni naqqosh tomonidan stillashtirib olingan shaklini ma'lum qonuniyatlar asosida takrorlanishidan hosil qilingan. Girih- geometrik shakllardan tuzilgan bo'lib, chigal, tugun ma'nosini anglatadi. Xandasiy naqsh - murakkab naqsh turi. U geometrik naqsh turlaridan biri bo'lib, to'rtburchak, uchburchak, aylana va yoylardan hamda ko'pburchaklardan iborat bo'ladi. Geometrik naqsh uzluksiz rapportlardan tashkil topgan bo'lib, har bir rapport o'z tuzilishiga ega bo'ladi.

Ruta - ikki tomonga ulanuvchi naqsh taqsimi, ya'ni hoshiya naqsh. Uning o'lchami ko'pincha 14-20 sm atrofida bo'ladi. O'oshiya naqsh turli xil bo'lib, uning mexrobga, xonaga ishlanishiga qarab lo'la hoshiya, ishkomb va boshqa turlari bo'ladi.

Munabbat - arabcha o'stirmoq degan ma'noni anglatadi. Asosi kvadrat yoki to'rtburchakdan tashkil topib, to'rt tomonga takrorlanadigan naqsh taqsimi. Katta yuzalarni bezashda munabbatdan foydalaniladi. Munabbatning o'simliksimon, geometrik va boshqa kompozitsion turlari bor. Uning munabbati mehrob, munabbati bofta, munabbati islami, munabbati girih va boshqa atamaları mavjud.

Turunj - arabcha "limon" degan ma'noni bildiradi. Ruscha medalon. Naqshlarda kompozitsiyaning markaziga chiziladigan naqsh turi. Turunj hyech qanday naqshga ulanmay muallaq turadigan kompozitsiya bo'lib, uning shakli asrlar davomida rivojlanib, boyitilgan.

Namoyon - forscha ko'rinish, manzara demakdir. Namoyon hyech nimaga ulanmaydigan mustaqil kompozisiya bo'lib, murakkab naqsh turiga kiradi. Uning o'simliksimon, geometrik, gulli girih, ramziy va boshqa turlari mavjud. Namoyonlar simmetrik va assimetrik tuzilishga ega bo'ladi.

Girih naqsh kompozitsiyalari tuzish. O'rta Osiyo xalq amaliy san'ati qadimdan mashhur. Ota-bobolarimiz yaratgan nodir san'at asarlari, ular qurgan muhtasham binolar, arxitektura yodgorliklari hozirgi kungacha o'z maftunkorligini yo'qotmagan. O'atto chet ellik sayyohlar ham qadimiy yodgorliklarni ko'rib lol qolmoqdalar. Bular jumlasiga Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi, Kalon minorasi, Samarqanddagi Shohi-zinda maqbarasi, Go'ri Amir maqbarasi, Ulug'bek, Sherdor, Tillaqori madrasalari kiradi. Yuzlab xalq me'morlarining qo'llari bilan yaratilgan jonli naqshlar kishilarga ko'tarinki ruh bag'ishlaydi. Chunonchi, Ulug'bek madrasasini tomosha qilar ekanmiz, uning ta'lim-tarbiya maqsadida bunyod etilganligi naqqoshlar bezagi orqali sezilib turibdi. Madrasa bezagidagi bir-birini kesib o'tgan behisob chiziqlardan tashkil topgan naqshlar charaqlab turgan yulduzlarni eslatadi. Ana shu ko'p burchakli va qirrali yulduzlardan tashkil topgan geometrik naqshlar girih deb yuritiladi.

Girih – forscha chigal, tugun degan ma'noni anglatadi. Girih murakkab naqsh turiga kiradi. Geometrik naqsh muayyan taqsimlarga ega bo'ladi. O'ra bir taqsimning o'z tuzulishi mavjud bo'ladi. Girih qat'iy qonuniyatga ega murakkab shakllar asosida takrorlanadi. Demak, har bir girih handasaviy (geometrik) qonuniyatlar asosida vujudga keladi. Girih o'zining murakkabligi, aniq qonuniyatga ega bo'lganligi hamda ko'rkamligi bilan boshqa naqsh turlaridan ajralib turadi.

Girih qat'iy qonuniyatga ega murakkab naqshdir. Usta islamiy nusxa chizishda istagan tomonga navdalarni yo'naltirishi mumkin. Agar ma'qul bo'lmasa o'chirib boshqa yoqqa yo'naltirib bo'sh o'rinlarni gul, g'uncha yoki barglar bilan to'ldirish mumkin. Lekin girih naqshini chizishda usta chizayotgan girihga tobe' bo'lib qoladi. Chunki har bir girih handasiy (geometrik) qonuniyatlar asosida

vujudga keladi. Xandasiy naqshlar O'rta Osiyo va yaqin sharq mamlakatlarida juda keng tarqalgan. U o'zini murakkabligi va aniq qonuniyatga ega bo'lmaganligi, ko'rkam va vazminligi bilan sovlato'zbek turadi. Biron inshoatni bezashda girih bilan islamiy birgalikda qo'llangan bo'lsa, birinchi bo'lib ko'zimizga girih tashlanadi. Kompozitsiyada girih yetakchi o'rinni, islamiy esa to'ldiruvchi o'rinni tutadi. Shu sababli girih bilan islamiy birgalikda qo'llangan kompozitsiyada islamiy girih chizig'ini kesib o'tmaydi. Girih birinchi, islamiy ikkinchi planda turadi. O'ar bir xalqni islamiy yoki oddiy o'simliksimon naqshlarini ko'rsak ular bir-biridan ajralib turadi. Chunki, har yerni o'ziga xos manzarasi va o'simlik dunyosi naqshida aks etib turadi. Bundan ma'lum bo'ladiki, islamiy naqshlar geografik xarakterga ega bo'larkan. Girihning Yana bir afzalligi shundaki, u baynalminal, geografik xarakterga ega emas: shu bois u vatan tanlamay yer yuzining hamma qit'asida o'z-o'rnini topa oladi.

Xo'sh naqqoshlikda ramz nima? - u arabcha "ishora qilmoq" so'zidan olingan, tabiatni, voqyelikni hayotdan quvonch va tashvishlarni, do'st va dushmanlarni, yaxshilik va yomonlikni naqsh elementlari, jonli chiziqlar, ranglar orqali tasvirlashdir.

Biz endi o'zbek milliy naqsh tili alifbosi bilan tanishib chiqamiz. Ular quyidagilardan iboratdir:

Geometrik naqsh elementlarining ramziy ma'nolari.

Teng tomonli uchburchak - tik turgan holati hayotni boshlanishi, teskari turgan holati hayotning oxirini bildiradi.

Teng yonli uchburchak - yaxlit bo'lingan bo'lak, ayriliq.

Kvadrat - dunyoning to'rt tomoni, osmon saroyi, quyosh farzandi, abadiylik.

To'g'ri to'rtburchak - ishonch.

Romb - ayol, ya'ni ona yer ramzi, serfarzandlik.

Aylana - olam, baxt, quyosh, odamlarni yovuz niyatidan qaytarish ramzi.

Besh qirrali yulduz - hayotning qisqaligi, besh kunli dunyo.

Yarim aylana - baxt.

Yarim oy - islom dinining ifodasi. Musulmonlik ramzi.

o'ng svastika - abadiy harakat, o'sish, ko'tarilish.

Chap svastika - teskari harakat buzilish.

Quyosh - hayot ramzi.

Bulut, olov - Qoliblik ramzi.

Islimiy naqsh elementlarining ramziy ma'nolari

Bodom - baxt, iqbol.

Barg - bahorgi uyQonish

Qalampir - har xil yomonliklardan va yomon ko'zdan asrash ramzi.

Zirk guli (Gulsafar) - osoyishtalik va umr uzoqligi.

Anor - ezgulik, to'qchilik, to'kin sochinlik.

Oygul - baxt, iqbol ramzi.

Jingala - to'kin sochinlik, boylik ramzi.

Olma - muhabbat ramzi.

Novda - boylik va farvonlik.

Yaproq - to'qchilik, bahorgi uyQonish, navro'z.

Isriq - yomon ko'zdan asrash ramzi.

Atirgul - go'zallik ramzi.

Qush va hayvonlarning ramziy ma'nolari

Sher - mardlik va jasorat va kuchlilik ramzi.

Tulki – makkorlik.

Chumoli - donolik, xoskorlik ramzi.

Bulbul – sadoqat.

Xumo - baxt keltiruvchi qush.

Boyqush - hushyorlik ramzi.

Sichqon - uy hayvonlarining ko'payish ramzi.

Echki - jasurlik, mardlik, pokizalik ramzi.

Oq kabutar - tinchlik.

Ohu - go'zallik, himoyasizlik, noziklik.

Ranglarning ramziy ma'nolari

Yashil rang - ona tabiat ramzi

Ko'k rang - moviy osmon, tinchlik va yomon ko'zdan asrash ramzi.

Qizil rang - Qalaba, hursandchilik, shodlik.

Sariq rang - muqaddaslik.

Qora rang - motam.

Sariq gul - ayriliq.

Zangori - oliy e'tiqod.

Oq rang - tozalik, yorug'lik, baxt va omad ramzi.

Ajdodlarimiz ranglarning hamma xususiyatlarini yaxshi bilganlar. Ular atrofimizni o'rab turgan tabiat ranglariga shaydo bo'lganlari uchun zangori, lojuvard va yaxshi ranglarni ayniqsa ko'p ishlatganlar. Binolarning koshin va pargin sirlarini, oftob nurida tovlanishini hamda atrofdagi ranglar bilan bo'qlanishini hisobga olib, munosib bo'yoqlar tanlaganlar. Pargin va koshinlarda asosan lojuvard, zangori, yashil, sariq va oq ranglar ishlatilgan. Ular osmon, yer, terilgan pishiq Qisht rangi bilan juda yaxshi boshlagan. O'ar bir rangning mazmuni va asoslangan manbai bo'ladi. Ko'm-ko'k, ya'ni havo rang ota bo'yoq koinotini eslatadi. Yashil rang - ona bo'yoq yer yuzidagi yam-yashil tabiat ramzidir. Ular aralashmasida hosil bo'lgan ranglardan xuddi onalik va otalik mehri kelib turganidek tuyuladi.

Ibn Sino ranglarning ruhiyatga ta'siri haqida quyidagilar bildirgan. "Qora, yashil rangdan ko'zga bor manfaat. Shu ranglardan topgay basorating quvvat. Oqu sariq ranglar haddan oshsa agar, bundan sening ko'zlaringga yetgay zarar." Sariq rang ko'z nuri hamda asab sistemalarini kuchaytirishini ta'kidlaydilar. Bu boshqa ranglar ichida eng quvnog'i sanaladi. Qadimdan ota-bobolarimiz sariq rangni sariq kasalga davo, deb hisoblab kelishgan. Shuning uchun bemorga sariq libos kiydirishgan va uyini sariq rangli buyumlar bilan jihozlashgan. Alisher Navoiy sariq rang to'g'risida shunday degan:

Yara qon da'fi sarig' jins qilur, turfa ko'rung.

Kim bilur tegsa yuzing to'kig'a bisyor sariq.

Oq rang ham o'ziga xos tomonlarga ega. Azaldan kishilar yangi uyga ko'chib o'tishdan oldin xonaga yangi uy va shiftlarga un sepishgan. Ayrim joylarda hanuz kelinnikiga kuyov tomonidan kelgan quda-andalarga un sepishadi. O'alqimiz odatda kelin kuyov yo'liga oq matodan poyonдоз to'shaganlar.

II-Bob. Naqsh kompozitsiyalarini kompyuter asosida tuzish texnologiyalari

1.1. -§. Kompyuter texnologiyalari – ta'lim samaradorligini oshirish omili

Hozirgi vaqtda yaratilayotgan va amalda qo'llanilayotgan zamonaviy axborot texnologiyalari ta'lim jarayoni sifatiga, ayniqsa, o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu jumladan, amaliy san'at fanini o'qitishda kompyuter texnologiyalarini joriy etishning afzalliklari yaqqol namoyon bo'lmoqda. O'qitish jarayonida kompyuter texnologiyalarini qo'llashning ahamiyatli tomoni shundaki, respublikamizning uzoq tumanlarida yashaydigan ta'lim oluvchilar axborot resurslaridan foydalanib, mahalliy darajada mavjud bo'lmagan maxsus bilimlarni egallaydilar.

Yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim oluvchilardan katta mas'uliyat talab etmoqda va ma'lum darajada ta'lim beruvchining vazifasini ham o'zgartirmoqda. U endilikda axborot tarqatuvchi va o'quv jarayonini boshqaruvchi hisoblanadi. Ta'kidlab o'tish joizki, ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar birgalikda faoliyat ko'rsatib, mazkur fanni o'qitish va o'rganishda jonbozlik ko'rsatishlari lozim.

Ravshan bo'ladiki, ta'limda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o'qitishning yangi vositalarini, eng birinchi navbatda, ta'lim berishning elektron vositalarini yaratishni talab etadi. Tadqiqot ishining ushbu paragrafida turli o'quv jarayonida, xususan, amaliy san'at fanidan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish (nazariy bilim berish, amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish, o'quvchilarning bilimi va o'qitish natijalarini nazorat qilish) da kompyuter texnologiyalaridan maksimal darajada foydalanish imkoniyatlari, o'qitishning elektron vositalari haqida so'z yuritamiz.

Hozirda ta'lim berishda texnik vositalarning xilma-xil turlaridan foydalanilmoqda. Ammo, ko'pgina ta'lim oluvchilar o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish jarayonida ma'lum qiyinchiliklarga duch keladilar. Shuning uchun ham, ta'lim oluvchilar kompyuter

texnologiyalaridan qaysi sohalarida ko'proq foydalanish, ularni qo'llash natijalari haqida aniq tasavvurga ega bo'lishlari lozim. Bundan tashqari, axborot texnologiyalaridan foydalanish va tegishli ish-vazifalarni bajarish bo'yicha barqaror amaliy malakaga ega bo'lish muhimdir. Umumta'lim maktablarida fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalarining, xususan, kompyuter vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda kompyuter ma'lum vaqt davomida, asosan ta'lim berishning boshlang'ich bosqichlarida o'qituvchi rolini bajarishi, keyin esa o'quvchining o'quv amaliy ish faoliyatida samarali vositaga aylanishi kerak.

Umumta'lim fanlari turkumiga kiruvchi tasviriyl san'at va chizmachilik fanlarini o'rganishda ham o'quv jarayoniga ta'lim berishning elektron vositalarini tadbiq etish mashg'ulotlarni tashkil etish tartibini ancha o'zgarishini ta'minlaydi. Quyida ana shu o'quv jarayoni bosqichlarini qisqacha tavsiflab o'tamiz.

Birinchi bosqich. Tasviriyl san'at va chizmachilik fanini o'rganishda har bir mavzuni o'rganish bo'yicha kerakli obyektlarni tanlab olish. Mavzular mazmunini yoritish bo'yicha axborot texnologiyalarini tanlash, umumta'lim fanlari bilan o'zaro aloqadorlikda ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirib olinishiga alohida e'tibor qaratish kerak. Imkoniyat darajasiga qarab yoritilayotgan mavzu bo'yicha yetarlicha ma'lumotlar bazasini yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ta'lim sifatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmasdan turib, «jonli» mashg'ulotlar videoyozuvlar yoki kompyuter namoyish dasturlari bilan almashtiriladi.

Ikkinchi bosqich. Ta'lim oluvchilarda tanlab olingan tasviriyl san'at va chizmachilik faniga oid obyektlarni tahlil etish texnologiyasidan foydalanish bo'yicha barqaror kasbiyl malakalar shakllantirish maqsadida o'qitish dasturi (dasturlari) bo'yicha mustaqil ishlarni tashkillashtirish zarur. Bu bosqich umumta'lim fanlarini, xususan, amaliyl san'at fanini o'qitishning asosiy bosqichi bo'lib, bunda o'quvchining kasbiyl yaroqliligini tasdiqlovchi haqiqiyl kasbiyl malakalar shakllantiriladi.

Psixologik nuqtai nazardan bu juda muhim sanaladi. Chunki bunda ta'lim oluvchi kompyuter bilan «yolg'iz» qoladi, subyektiv baholashlar va nosog'lom raqobatdan holi bo'ladi. U o'zining kelgusidagi kasb-kori texnologiyasini egallashi uchun qancha vaqt kerak bo'lsa, shuncha vaqt sarflashi va shuncha urinishi mumkin. Bunday yondashuv asosida amaliy san'at fani bo'yicha ta'lim olish ancha samarali bo'lib, o'zining ijobiy tomonini ko'rsatishi aniq.

Uchinchi bosqich. Amaliy san'at fanidan olingan bilim, ko'nikma va malakalar asosida sinov topshirish. Odatda, sinov uchun ham ta'limiy dasturdan foydalaniladi, ammo u nazorat tartibida amalga oshiriladi (ko'rsatmasiz va xatolarni hisoblash asosida). O'quvchilarni sinovdan o'tkazmasdan turib, o'qituvchi fanni o'qitish jarayonida qanday yutuqlarga erishganligini bilib ololmaydi. Sinov topshirish vaqtida o'quvchilar o'zlari ustida mustaqil ish olib boradilar, axborot manbalaridan foydalanish asosida yetarlicha bilim manbalarini to'plab olishga erishadilar.

To'rtinchi bosqich. Bu bosqichda o'quvchilar amaliy san'at fanidan yangi-yangi ma'lumotlarni topish, yangi obyektlarni o'rganish maqsadida o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydilar. Bu endi haqiqiy kasbiy faoliyat bo'lib, bunda o'quvchilar axborot manbalarini to'plash maqsadida kompyuterlardan mustaqil foydalanish, o'qitish jarayonini ta'limiy dastur asosida tahlil etish texnologiyasini joriy etadilar.

Fikrimizcha, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi va oliy o'quv yurtlarida amaliy san'atni samarali o'qitish uchun tartibli ta'limiy dasturlar fondini yaratish bo'yicha rejali ishlar olib borilishi kerak. Yaratilgan ta'limiy dasturlarda quyidagilarni inobatga olish maqsadga muvofiqdir:

- Amaliy san'atni o'qitish, bunda mavjud har qanday mavzuni yoritish bo'yicha samarali o'quv jarayonlarini tashkil etish maqsadida qulay shart-sharoitlar yaratish;

- Amaliy san'atning zamonaviy yutuqlaridan xabardor qiladigan axborot texnologiyasi vositalari, qulay ilmiy texnik ensiklopediya bo'lishi;

- yoritilayotgan har qanday mavzuga tegishli ma'lumotlar to'plash uchun aniq tuzilma va zaruriy axborotni izlash uchun qulay tizimga ega bo'linishi lozim.

Bu maqsadlarga erishish uchun esa amaliy san'atdan elektron resurslarni tanlash va yaratish metodikasini ishlab chiqishni taqozo etadi. Albatta, buning uchun o'quvchilar kompyuter va internetdan foydalanishni bilishlari, shu orqali mazkur fan bo'yicha eng yangi ma'lumotlarni yig'ishlari talab etiladi.

Kelgusida bu fondni amaliy san'atning fundamental bilimlari va ilg'or yutuqlari bilan boyitib borish, alohida fond dasturi yaratish, zarur vaqtda tegishli ma'lumotlarni olish, ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish, tuzatish va qo'shimchalar kiritish va boshqa qator imkoniyatlar mavjud.

- Yuqorida yaratilishi ko'zda tutilgan amaliy san'at fondini tizimli ravishda, ta'lim oluvchilarga kerakli ma'lumotlarni qulay topish mumkin bo'lgan holatda tuzish mumkin.

Umumta'lim (mehnat ta'limi) fanlarini o'qitishda informasion texnologiyalardan foydalanishning pedagogik asoslari. Hozirgi vaqtda ta'lim tizimida o'qitishning faol usullari va axborot texnologiyalardan keng foydalanish asosiy masalalardan biriga aylanib qoldi. Bu masalani muvaffaqiyatli hal qilish ko'p jihatdan fan o'qituvchisining kasbiy malakasiga va pedagogik mahoratiga bog'liq. Shunday ekan, oliy o'quv yurtlarida tayyorlanayotgan mutaxassislarning pedagogik malakasini shakllantirish va pedagogik mahoratini rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi. Shubhasiz, bu ishda ilg'or pedagogik tajribalar va zamonaviy axborot texnologiyalari juda qo'l keladi. Shuning uchun ham, umumiy o'rta ta'lim maktablarida fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari to'g'risida

ma'lumot berish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Axborot texnologiyasi bu – axborotlarni to'plash, saqlash, qayta ishlash, uzatish va tasvirlashni ta'minlovchi metod va vositalar majmuidir.

Ta'limda axborot texnologiyasi deyilganda o'quv-tarbiya jarayoniga, xususan, fanga oid barcha ma'lumot, fundamental va ilg'or fan-texnika yutuqlari bo'yicha axborotlarni yig'ish, saqlash, uzatish, qayta ishlash va ulardan amaliy foydalanish metodlari va vositalari majmui tushuniladi.

Tadqiqot va izlanishlardan shu xulosaga keldikki, bugungi kunda ta'limga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish o'z ichiga quyidagi masalalarni qamrab olishi lozim:

- ta'lim oluvchilar shaxsini rivojlantirish va ularni axborotlashgan jamiyat sharoitida mustaqil faoliyat ko'rsatishga tayyorlash:

- o'quvchilarning fan bo'yicha algoritmik fikrlash tarzini rivojlantirish;

- reproduktiv faoliyat ulushini kamaytirish hisobiga o'quvchilarni ijodiy faoliyatga o'rgatish;

- loyihalarni hamkorlikda amalga oshirish asosida o'quvchilarda fanlarga bo'lgan qiziqish va ularning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish;

- o'quvchilarda murakkab vaziyat va fan-texnika masalalariga oid masalalarni hal qilishda optimal yechimni qabul qilish ko'nikmasini shakllantirish;

- dastur va tizimlar bilan ishlash malakasini shakllantirish va rivojlantirish;

- o'quvchilarning fanlar bo'yicha axborot yig'ish ulardan foydalana olish malaka va madaniyatini shakllantirish.

Jamiyatning ijtimoiy buyurtmalarini bajarish bo'yicha:

- axborot texnologiyasi sohasida faoliyat yurituvchi malakali mutaxassis va muhandis-pedagoglarni tayyorlash;

- mustaqil bilish faoliyatiga o'rgatuvchi pedagogik vositalar va axborot texnologiyalarini yaratish va ulardan kasbiy ta'lim jarayonida amaliy foydalanish.

O'quv-tarbiya jarayonining barcha bug'inlarini intensivlashtirish bo'yicha:

- axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalangan holda o'qitish jarayoni sifati va samaradorligini oshirish;

- bilish faoliyatini faollashtirish axborot omillarini aniqlash va ulardan foydalanish;

- fan bo'yicha fanlararo aloqadorlikni chuqurlashtirish maqsadida axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish.

Biz hozirgi zamon axborot texnologiyalarini o'quv-tarbiya jarayoniga tadbiq etish, o'quvchilarga axborot texnologiyalaridan yuksak darajada foydalanish, ta'lim jarayoni faoliyatiga ko'maklashuvchi imkoniyatlarini un uchta omil bo'yicha yoritib berishga harakat qildik (1-jadval). Jadvalda umumta'lim maktablarida axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha ma'lumotlar yo'nalishlari keltirilgan, xususan, o'qitish jarayonida foydalanishga taqdim etish mumkin.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga tayangan holda umumta'lim maktablarida axborot texnologiyalaridan foydalanishni tashkil etish, ularni o'quv faoliyatiga joriy etish bo'yicha tashkiliy-tuzilmaviy sxemani keltirib o'tmoqchimiz (1-shakl). Shakldan ko'rinadiki, o'quvchilarning axborot texnologiyalaridan foydalanishlari sistemali amalga oshirilib borishi lozim. Bunday ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikda faoliyat olib borishlari, ta'limda hamjihat, birgalikda faol ishtirok etishlarini talab etadi. Zero, ta'lim-tarbiya jarayonida bu ikki shaxs (o'qituvchi va o'quvchi) ning o'zaro faoliyat natijasi hisobga olinadi. Aks holda, o'qitish-o'qish jarayonida hech biri (o'qituvchi va

o'quvchi) o'z maqsadiga erisha olmaydi. Haqiqatdan, o'qituvchi faoliyatining yutug'i o'qitishning samarasi, o'quvchining yutug'i bilish, ko'nikma va malaka hosil qilish bilan belgilanadi.

1-jadval

№	Omillar	Axborot texnologiyalarining o'quv jarayoniga ko'maklashish imkoniyatlari va vositalari
1	Foydalaniladigan o'qitish vositalari majmui	An'anaviy o'qitish vositalari, o'qitishning texnik vositalari, dasturli nazorat vositalari, avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi tizimlar, intellektual o'rgatuvchi tizimlar, o'quv-axborot muhiti
2	O'qitishning psixolo-pedagogik nazariyasi	Virtual muhitda o'qitish nazariyasi
4	Bilish faoliyati turlari	Mahsuldorlik (produktiv) faoliyat
3	O'qitish vositalari vazifalari	O'quv materiallarini namoyish etish, bilimlarning joriy, oraliq va yakuniy nazorati, bilimlarni baholash, tashhishtash, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish
5	O'qitishni individuallashtirish vositalari	Ta'lim oluvchining o'ziga xos qobiliyatini hisobga olish
6	O'zlashtirish uchun beriladigan va nazorat qilinadigan bilimlar o'rtasidagi vaqt intervali	O'qitish shart-sharoitiga bog'liq tanlash ixtiyori
7	Bilimlarni nazorat qilish oralig'i	Kompyuter texnik imkoniyatlarining amaliy jihatdan cheklanmagani
8	Bilimlarni nazorat qilish subyekti	O'qituvchi, o'qitish va o'rganish vositalari
9	O'rganuvchi axborot taqdim etish imkoniyatlari	Animasiya, audio va video, ma'ruza
10	O'quv materiallarini o'rganishni faollashtiruvchi omillar	Virtual borliq bilan ishlash
11	O'qitishning texnik vositalarini integrasiyalash imkoniyatlari	Barcha o'qitish vositalarini integrasiyalash, sun'iy intellekt asosida o'qitishni tashkil etish vositalari
12	Turli xil sharoitda o'qitishning texnik vositalarini qo'llashning qulayligi va ommaviyligi	Amaliy jihatdan o'qitish shart-sharoitiga bog'liq emasligi
13	Instrumental vositalar bilan jihozlanganlik	Turli xil sharoitda o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish uchun mo'ljallangan avtomatlashtirilgan instrumental vositalari

Amaliy san'at fanlarini o'qitishda yuqorida tavsiya etilayotgan jadval va shakldan o'z o'rnida foydalanilsa, o'qitish ishlari samara natijala beradi. Bundan tashqari olingan bilimlarni mustahkamlash, nazariy bilimlarni chuqurlashtirish maqsadida amaliy mashg'ulot ishlarida kompyuter imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun fanni o'qitishda fan yuzasidan barcha ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtiruvchi maxsus dastur tuzib chiqilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Dasturdan ijodiy foydalanish, ta'lim samaradorligini oshiradi. O'quv jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llash va ular asosida multimediya vositalaridan foydalanish quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi: o'quv-tarbiya jarayoni va o'quvchilarning bilish faoliyati faollashadi, o'quv materiallarni turli xil shakl va vositalar (ovoz, matn, video, grafika, animasiya) orqali taqdim etish natijasida o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishi ortadi, o'quv materiallarini bayon etishda ko'rgazmalilik yuqori darajada ta'minlanadi va o'quvchilarning mustaqil fikrlashiga zamin yaratiladi, axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quv materiallari mazmuni o'quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanishiga olib keladi, o'quvchilarni tabaqalashtirib o'qitish imkoniyati yaraladi, o'quvchilar mashg'ulot davomida nafaol tinglovchidan faol ishtirokchiga aylanadi, o'quvchilar o'qituvchi bilan erkin muloqotga kirishadi va uning hamkoriga aylanadi, o'quvchilarda mustaqil bilim olish ko'nikmasi shakllanadi, o'qituvchining vaqti tejaladi, o'quvchilarning bilimi kompyuter vositasida nazorat qilinadi va baholanadi.

Aytish mumkin ekanki, amaliy san'at fanlarini o'qitishda informasion texnologiyalardan foydalanishning pedagogig asoslarini ishlab chiqish va ta'lim-tarbiya faoliyatiga tadbiq etish mashg'ulotlarni yuqori saviyada o'tishini ta'minlab, ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishga imkoniyat yaratib beradi.

2.2. Paint va Power Point dasturida naqsh kompozitsiyalarini chizishda qo'llanilishi

Kompyuterdan foydalanuvchi ish jarayonida turli xil shakl yoki grafiklar chizish, reklama, e'lonlar, taklif yoki tabriknomalar, matnli hujjatlarni illyustratsiyalash (bezash) kabi ishlar ko'lamini bajarishiga to'g'ri keladi. Bunday vaziyatda foydalanuvchidan Paint grafik muharririda ishlashni bilish taqozo etiladi.

Paint grafik muharriri yordamida quyidagi ishlar ko'lamini bajariladi: ekranda yangi shakl (grafik) yoki rasm chizish; rasmni xotiraga fayl tarzida yozish; xotiradan faylni (rasmlari) ekranga chiqarish; rasm qismini boshqa joyga nusxalash; ajratilgan qismni boshqa joyga nusxalash; rasmni to'laligicha boshqa joyga ko'chirish; yangi rasmni ajratib qo'yish; rasm (shakl)ni kichiklashtirish yoki kattalashtirish; chiziqlarni ixtiyoriy qalinlikda tanlash; buyoq (rang)larni tanlash; rasm tevaragiga (yoniga, tagiga, ustiga) matn yozish; turli shriftlardan foydalanish; ranglarni tahrir qilish; ranglarni aralashtirib yangi rang olish; rasmni ekranda to'la, qisman ajratilgan holda qurish va tahrir qilish; rasmni chop qilish; rasmni boshqa dasturlar (Word, Excel, internet)da chiqarish va foydalanish kabi bir qancha ishlar majmuini bajarish.

Paint ishga tushganidan so'ng kompyuter ekranida Paint ish stoli, boshqarish darchasi hosil bo'ladi. Boshqarish darchasining birinchi satrida satri, ikkinchi (Безымянный- Paint) sarlavha satri, qatorda menyu satri, ekranning chap tomonida uskunalar majmuasi (shakl va rasmlar chizish uchun) joylashgan. Ish stoli tagida ranglarni tanlash uchun buyoqlar alohida to'rtburchaklarda berilgan.


Foydalanuvchi kerakli uskuna yoki bo'yoqni tanlab ekranda rasm yoki shakl hosil qiladi.

Paintni yuklash va unda ishni tugallash. Paintni ishga tushirish uchun ta'minlash dasturining rekvizitidan Paint belgisini tanlab olinib, "sichqoncha"ning chap tugmasini bosish lozim.

Paint piktogramma ko'rinishiga keltirilmagan bo'lsa, dastlab Windows 2000 da "Пуск" yordamida "Программы" bandiga kiriladi, so'ngra "Стандарты"

bandidan ko`rsatkich orqali “Paint” belgilanib “Sichqoncha”ning chap tugmasi bosiladi.

Paint dasturida ishni tugallash uchun sistema menyusidagi X belgisi ustida “sichqoncha” tugmasi bosiladi. “Fayl” buyruqlar to`plamiga kirib, “Выход” bandi ustida “sichqoncha” tugmachasi bosiladi yoki Alt F4 tugmachalarini birgalikda bosib Paintda ishni tugallanadi.




2.2.1-rasm

Paint menyusi bilan ishlash. Paint ekranining yuqori qatorida grafik, shakl, rasmlar va ularning qismlari ustida turli hil amallar bajarish uchun mo`ljallangan menyu qatori joylashgan. Menyuni tanlash uchun “sichqoncha” ko`rsatkichini tegishli menyu bo`limi ustida bosiladi. Menyudan ekranga qaytish uchun ESC tugmasi bosiladi.

Paint grafik muharririda menyu buyruqlar to`plami quyidagilardan iborat.

“Файл”, “Правка”, “Вид”, “Рисунок”, “Палитра”, “Справка”.




2.2.2-rasm. Paint ish stoli.

Yangi fayl yaratish, xotirada saqlash, chop qilish, fayl bo'limi. “Fayl” buyruqlar to'plami yordamida quyidagi ishlar majmuini bajarish mumkin:

- Создать (Ctrl+N)-yangi rasm chizish uchun sahifa ochish;
- Открыт (Ctrl+O)-xotirada rasmni ekranga chiqarish
- Сохранить (Ctrl+S)-ekrandagi rasmni xotiraga yozib qo'yish;
- Сохранить как-ekrandagi rasmni fayl qurnishda xotiraga yozish;
- Предварительный просмотр-rasm holatini ko'rish.
- Параметры страницы-sahifa parametrlarini o'rnatish;
- Печать (Ctrl+R)-rasmini chop qilish;
- Последние файлы-oxirgi to'rtta fayllar;
- Выход Alt+F4-Paintdan chiqish;


Demak, menyuning “fayl” bo'limi yordamida yangi fayl yaratish, faylni xotiradan chiqarish yoki xotirada saqlash, fayl tarkibini ko'rish, sahifa parametrlarini o'rganish, grafik (shakl yoki rasm)li faylni chop qilish, uni boshqa dasturlarga masalan MS Word? MS Internet ga yuborish va tahrir qilinayotgan fayllardan chiqish mumkin.



- fayl yaratish
- faylni ochish
- faylni xotirada saqlash
- faylni nom bilan xotirada saqlash
- faylni skaner yoki kameradan saqlash
- faylni oldindan ko`rish
- sahifa holatini ko`rish
- faylni chop qilish
- faylni biror manzilga junatish
- Windows ish stoliga bog`lanish
- Windows ish stoli o`rtasiga qo`yish
- oxirgi fayllar
- Paint dan chiqish

2.2.3-rasm.

*Tasvirni tahrirlash. Pravka bo`limi.* “Pravka” buyruqlar to`plami yordamida quyidagi ishlar majmuasini bajarish mumkin. Demak, menyuning “Pravka bo`limi yordamida oxirgi buyruqni bekor qilish, takrorlash, rasm yoki shaklni qirqib olish, uni kerakli joyga qo`yish, ajratilgan qismini olib tashlash, boshqa faylga nusxalash yoki boshqa fayldan olib kelib joriy faylga nusxalash kabi ishlar majmui bajariladi.




- buyruqni bekor qilish
- oldingi holatni takrorlash
- rasmdan qirqib olish
- ko`chirish
- qirqilgan qismni biror joyga o`rnatish
- ajratilgan qismni tozalash
- barchasini ajratish
- rasmni faylga ko`chirish
- boshqa fayldan olib kelib qo`yish

2.2.4-rasm.

*Tasvir qurish ustidan amallar. Вид bo`limi.* «Вид» buyruqlar to`plash yordamida quyidagilarni bajarish mumkin.

Demak, Вид bo'limi ko'magida uskunalar majmualarida akslantirish va rasm burish, buyoq va qator holati tanlanadi hamda rasm tevaragiga yoziladigan matn atributlari o'rnatiladi, rasm mashtabi aniqlanadi.



- uskunalar majmuasi
- bo'yoq ranglash sohasi
- qator holati
- matn atributlari(belgilari) darchasi
- Масштаб
- rasmni ekranda to'liq ko'rish

2.2.5-rasm

Палитра bo'limi. “Palitra” bo'yruqlar yordamida quyidagi ishlarni bajarish mumkin. “Palitra” bo'limi yordamida buyoq rangini almashtirish va saqlash mumkin.

Справка bo'limi. “Справка” buyruqlar to'plamida quyidagilarni bajarish mumkin: “Справка” bo'limi yordamida Paintda ishlash haqida yordam olish va dastur haqidagi ma'lumot olish mumkin.

Вызов справки-ма'lumotnomani chaqirish.

О программе-dastur haqida ma'lumot olish mumkin.

“I maging” dasturida illyustratsiyalar bilan ishlash. Windows tarkibiga tayyor rasmlarni ko'rish, skaner yoki raqamli fotokamera yordamida turli tasvirlarni kompyuterga kiritish va illyustratsiyalarga kichikroq o'zgarishlar berishga yordam beruvchi dastur joylashtirilgan. Bu Imaging dasturi. Ko'pincha bu dasturni rasmlarni tomosha qilish uchun mo'ljallangan dastur deb atashadi.

Imaging dasturi turli tasvirlar bilan ishlashga mo'ljallangan. Windows dagi tasvir deb skaner yordamida zakamli shaklga aylantirilgan fotografiya, rasm yoki tekstli hujjatga aytiladi.

Rasmni ochish uchun dastur ularni turli tipdagi grafik hujjatlardan yoki tug'rida skaner yoki rakamli kameradan oladi. Imaging dasturi bir necha varaqdan iborat bo'lgan grafik fayllar bilan ham ishlashi mumkin. Bir necha varaqli grafik fayllardagi grafik hujjatlardagi har bir tasvir bo'lak grafik varaqda saqlanadi.

Dastur bir necha ommabop grafik formatlar bilan ishlaydi. Uning yordasida TIFF, BMP yoki JPEG formatlari bilan ishlash mumkin. Ko'p varaqli hujjatlar faqat TIFF formatida saqlanadi.

Dastur bilan tanishish. Dasturni ishga tushurish uchun Pusk (start) tugmachasini bosib va Windows bosh menyusidagi Программы-standartnye - Imaging komandasi ianlash lozim. Dasturni ishga tushurgandan so'ng ekranda uning ishchi oynasi paydo bo'ladi.

Satr boshi oynasi, menyu va xolat satri boshqa dasturlardan farq qilmaydi. Bir nechta instrumentlar paneli oynaning yuqorigi va pastgi qismda joylashgan. Instrumentlar kerakli tugmani bosish orqali tanlanadi. Oynaning markazida tasvirni ko'rish va tahrirlash uchun mo'ljallangan. Bir nechta panellarda joylashgan tugmalar yordamida rasmni ko'rish, ko'rish uchun qulay rejim tuzish, tasvirni printerda chop qilish va hohlagan rasmga belgilar qo'yish mumkin. Bular chiziqlar, markerlar, tekstlar va boshqa elementlar bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari rasmni hohlagan tomonga aylantirish mumkin. Bu ayniqsa tasvirni raqamli kamera yoki skanerda olishda juda qulay.

Hujjatdan keyinroq yana foydalanish uchun uni grafik formatlardan birortasida saqlash mumkin.

Imaging dasturlarni tomosha qilish va oddiy tahrirlash uchun oddiy va qulay vosita hisoblanadi.

Dasturda yaratilgan fayllarni ochish va uni yaratish Windows tizimining interfeysi bilan bir hil.

Agar ko'p varaqli hujjat yaratib uni hohlagan paytda tahrirlashni mo'ljallagan bo'lsangiz TIFF formatini tanlash lozim. Yaratilgan tasvirni boshqa dasturlarda ham foydalanish kerak bo'lsa, tasvirni BMP formatida saqlash mumkin. BMP formati Windowsning standart grafik formati hisoblanadi. Internet uchun tasvir yaratish yoki diskdagi joyni tejak uchun JPG formatini tanlagan ma'qul.

Lekin shuni esdan chiqarmaslik lozimki kichik o'lchamdagi fayllarda saqlangan tasvirlarning sifati pasayadi.

Hohlagan grafik formatda turli tuman ranglardan foydalanish mumkin. Rasmda qancha ko'p rang bo'lsa u xotirada va diskda shuncha ko'p joy egallaydi. Tasvirlar diskda kam joy egallashi uchun uni qisqartirib qo'llash mumkin. BMP formati uchun uni qisqartirib qo'llash mumkin emas. Bu usul faqat TIFF yoki JPG formatlarida qo'llaniladi. Lekin bunda tasvirlarning sifati pasayadi.

Fotografiyalarni kompyuterda qayta ishlash. Photo Editor dasturi. Microsoft Photo Editor dasturi yordamida tasvirni skaner yoki raqamli fotokameradan kiritish, fotografiyalarni qayta ishlash, uni burish yoki o'lchamini o'zgartirish mumkin. Bundan tashqari tasvirga badiiy effektlarni ko'llash mumkin, masalan. Tasvirni mozaika yoki bo'rtma tasvirga aylantirish mumkin.

Microsoft Photo Editor dasturi Microsoft office paketi tarkibiga kirib u bilan birga yuklanib, tuziladi.

Power Point grafika redaktori to'g'risida umumiy ma'lumot. Microsoft PowerPoint — universal, imkoniyatlari keng bo'lgan, ko'rgazmali grafika amaliy dasturlari sirasiga kiradi va matn, rasm, chizma, grafiklar, animatsiya effektlari, ovoz, videorolik va boshqalardan tashkil topgan slaydlarni yaratish imkonini beradi.

Slayd — ma'lum bir o'lchamga ega bo'lgan muloqot varaqlari hisoblanadi. Unda biror maqsad bilan yaratilayotgan namoyish elementlari joylanadi.

Slaydlar ketma-ketligidan iborat tayyor ko'rgazmani kompyuter ekranida, videomonitorida, katta ekranda namoyish qilish mumkin. Ko'rgazmani tashkil qilish — slaydlar ketma-ketligini loyihalash va jihozlash demakdir.

Taqdim etish axborot texnologiyasining samaradorligi ko'p jihatdan taqdim etuvchi shaxsga, uning umumiy madaniyati, nutq madaniyati va x.k.larga ham bog'liqdir.


Power Point dasturi MICROSOFT firmasining WINDOWS qobig'i ostida yaratilgan bo'lib, ushbu dastur prezentatsiyalar (taqdimot qilish, ya'ni tanishtirish) bilan ishlash uchun eng qulay bo'lgan dasturiy vositalardan biridir. Bu dastur orqali barcha ko'rgazmali qurollarni yaratish va ba'zi joylarda esa ma'lumotlar bazasi sifatida ham qo'llash mumkin. Ayrim hollarda bu dasturdan multimedia

vositalarini boshqarish va ularni qo'llab, namoyish etuvchi qurilmalarga yuborish vazifalarini ham bajarish mumkin. Dasturdagi asosiy tushunchalar bu — slayd va prezentatsiya tushunchalaridir.

Prezentatsiya (taqdimot) — yaratilayotgan slaydlar turkumi va uni namoyish etish uchun beriladigan fayl nomi. Masalan: Prezentatsiya1 — PowerPoint dasturi ochilganda, sarlavhalar qatorida paydo bo'lib, yaratilgan yoki yaratilayotgan taqdimotning ayni vaqtdagi nomi hisoblanadi. Bu nomni keyinchalik o'z hohishimizga ko'ra almashtirishimiz mumkin.


PowerPoint dasturini ishga tushirish. Bu dasturni ishga tushirishni WINDOWS ish stolidan boshlash zarur. Ish stolidagi quyidagi buyruqlarni bajarish orqali dastur ishga tushiriladi:

«Пуск» — «Программы» — «Microsoft PowerPoint»



2.2.6-rasm.

PowerPoint ishga tushirilganda ekranda rasmda ko'rsatilgan taqdimot yaratish muloqot darchasini ko'rish mumkin.




2.2.7-rasm.

Bu muloqt darchasi orqali taqdimot yaratish turini tanlab olish mumkin bo`ladi. Rasmda quyidagi 4 ta asosiy bo`lim berilgan:

- «Мастер автосодержания» (Avtomundarija ustasi) — ma'ruzachi ismi, familiyasi, mavzu nomi, taqdimot turi, uslubi, rangli chizmasini kiritib, bir necha slayddan iborat bo`lgan tayyor taqdimotni chiqaradi.
- «Шаблон презентации» (Taqdimot qoliplari) — taqdimotni jixozlash turini tanlash va ularda ish olib borish imkonini beradi.
- «Пустую презентацию» (Bo`sh taqdimotni) — mustaqil ravishda taqdimot tuzish imkonini beradi.
- «Открыть презентацию» (Taqdimotlarni ochish) — kompyuter xotirasida va diskda mavjud bo`lgan ko`rgazmali fayllarni ochadi.

Har bir foydalanuvchi dasturda ish olib borishi uchun yuqoridagi bo`limlardan birini o`z maqsadiga ko`ra tanlab oladi. Dastur ishini bo`sh taqdimotdan ham boshlash mumkin. Buning uchun sichqoncha ko`rsatkichi «Пустую презентацию» (Bo`sh taqdimotni) bo`limiga olib kelinadi va «OK» tugmasi bosiladi. Bunda quyidagi muloqot darchasi hosil bo`ladi.




2.2.8-rasm.

Bu yerda ko`rsatilgan har bir slaydni tanlab olish imkoniyati bor. Buning uchun yo`nalish tugmalari yoki sichqonchadan foydalanish mumkin.

Muloqot darchasidan kerakli holat, masalan: «Пустой слайд» (Bo`sh slayd) ko`rinishi tanlanadi va «OK» tugmachasi bosiladi.


Bu amallar bajarilgandan so`ng PowerPoint dasturining asosiy oynasi hosil bo`ladi. U sarlavhalar qatori, gorizontal menyu, uskunalar paneli («standart», «bichimlash» va rasmlar bilan ishlash), rejim (holat) tugmachalari (slaydlar rejimi, strukturalar rejimi, saralash rejimi, namoyishlar rejimi) va ishchi maydonni o`z ichiga oladi.

PowerPoint ekranining pastki chap burchagida ish rejimi va uning turlarini boshqaruvchi tugmachalar (piktogrammalar) guruhi joylashgan.



2.2.9-rasm.


Taqdimotlar yaratish. Yangi taqdimotni yaratishda PowerPoint dasturining asosiy oynasidagi Gorizontal menyuning «Файл»—«Создать» (Fayl—Yaratish) buyruqari ketma-ket bajariladi. Bu buyruqlar bajarilgandan so`ng «Создать презентацию» (Prezentatsiya yaratish) muloqot darchasi ko`llanadi.



2.2.10-rasm.


Bu oynada quyidagi funktsiyalarni bajaruvchi buyruqlar mavjud:

1. «Общие» (Umumiy) — yangi taqdimot yaratish qolipi;
2. «Дизайн презентации» (Takdimot dizaynlari) — turli takdimotlarining tasvir ranglari va koliplarini ko'rsatish, ya'ni, rang turi, xarflar kurinishi va takdimotning boshqa atributlarini aniklash uchun Power- Pointning dizayn shablonini tanlashingiz mumkin.
2. «Презентации» (Taqdimotlar) — bunda turli sohalarda ish olib borishga mo'ljallangan tayyor taqdimotlar ko'rinishlari keltirilgan.



2.2.11-rasm.

3. «Шаблоны оформления» (Bezak shablonlari) — turli taqdimotlarining tasvir ranglari va qoliplarini ko'rsatish, ya'ni, rang turi, harflar ko'rinishi va taqdimotning boshqa atributlarini aniqlash uchun Power- Pointning dizayn shablonini tanlash mumkin.



2.2.12-rasm.


4. «Web-stranitso» (Web-saxifalar) ko'rinishidagi takdimotlar.

*Eslatma: yuqoridagi taqdimotlarni yaratish va ularning turlarini, dizaynlarini va sarlavhalarini tanlash sichqoncha orqali amalga oshirilib, ishga tushirish uchun **OK** tugmasi bosiladi.*

Taqdimotlarni saqlash. Yaratilgan taqdimotlar fayllarda saqlanadi. Saqlash uslubi WINDOWS ning boshqa dasturlaridagi kabidir. Taqdimotlarni saqlash quyidagi usulda bajariladi:

Standart uskunalar panelidagi saqlash (piktogrammasi) tugmasi bosiladi yoki gorizontaal menyudan «Файл»—«Сохранить» (Saqlash) buyruqlari beriladi. Shunda quyidagi muloqot darchasi hosil bo`ladi va unda ketma-ket quyidagilar amalga oshiriladi.

1. Saqlash uchun fayl nomi va papkasi ko`rsatiladi.
2. «Сохранить» (Saqlash) tugmasi bosiladi.




2.2.13-rasm.

Taqdimotlarni tahrirlash. Taqdimotlarni saqlagandan so`ng uning tarkibidagi barcha slaydlarni alohida-alohida o`zgartirish mumkin. Buning uchun yaratilgan slaydlarga sichqoncha ko`rsatkichi olib kelinadi va tugmasi bosilib tasdiqlangandan so`ng kerakli o`zgartirishlarni kiritish mumkin bo`ladi.

Slaydlar va struktura rejimida ishlash slaydlar rejimida ishlash. Bu rejimda yangi slayd yaratish, uning belgisini o`zgartirish, slayd matnini terish, tahrir qilish, slaydlarni guruhlash, rang sxemasini o`zgartirish hamda maxsus fon yaratish mumkin.

- Yangi slayd yaratish uchun darchaning standart uskunalar panelidagi  «Новый слайд» (Yangi slayd) tugmachasi bosiladi.
- Slayd belgisi, turi, ko`rinishlarini o`zgartirish uchun darchaning standart uskunalar panelidagi  «Разметка слайда» (Slaydni belgilash) tugmachasi bosiladi.



2.2.14-rasm.


- Slaydlarning bezash ishlarini o`zgartirish uchun shu paneldagi  «Применить шаблон оформления» (Jixozlash ko`llanilsin) tugmasi bosiladi.

Slaydga matn kiritish va uni tahrir qilish quyidagi usulda amalga oshiriladi:

- matn uchun ajratilgan maydonga sichqoncha ko`rsatkichi olib kelib bosiladi va kursor paydo bo`lgandan so`ng matn klaviatura orqali kiritiladi.


- Slaydlarni kichraytirish uchun matn bloki tanlanadi yoki ob'ekt va tanlash markeri chegaralari tanlanadi.

• O`zgartirish kiritish uchun sichqonchanning o`ng tugmachasi bosiladi. Ekranida yordamchi (kontekstli) menyu hosil bo`ladi. Menyudan kerakli rejim tanlab olinadi.



2.2.15-rasm.


Slaydlarni belgilash. Slaydlarni belgilashni qo'llab rasm, diagramma, jadval yoki WINDOWSning ixtiyoriy ob'ektini qo'yishni muljallab slayd tanlash mumkin. Buning uchun «Файл» menyusidan «Создать» (Yaratish) buyrug'i tanlanadi. Ekranda quyidagi darcha ochiladi:



2.2.16-rasm.

Tavsiya qilinayotgan slaydlardan kerakli ko'rinishdagi slayd tanlanadi va «OK» tugmasi bosiladi.

«Структура rejimiga o'tish» piktogrammasi ishga tushirilganda, tartiblangan har bir slaydning matn va rasm ko'rinishlari yoziladi. Shundan so'ng Struktura rejimida muloqot darchasi quyidagicha ko'rinishni oladi:



2.2.17-rasm.

Bu rejimda matnli ma'lumotlarni kiritish, taqdimot turkumini boshqarish mumkin. Shundan so`ng bu muloqot darchasida gorizontal menyudagi «**Показ слайдов**» (Slaydlarni ko`rsatish) bo`limidan «**Показ**» (Ko`rsatish) buyrug`i tanlanadi va ekranda yuqoridagi ko`rinish hosil bo`ladi.

Animatsion effektlar. Animatsiya — bu, ob'yektlar, kameralar, yorug`lik manbalarining o`zaro joyini almashtirish yoki ularning parametrlarini vaqt bo`yicha o`zgarishiga ega bo`lgan vazifa yoki topshiriqdir. hozirgi paytda kompyuterli grafika vositalarini qo`llashning ushbu sohasi kuchli rivojlanishni boshdan kechirmoqa. animatsion grafika o`zida rang, tasvir va illyustrativ grafika (mashinaviy tasvirlar, illyustrativ matnlar, chizmalar, eskizlar va boshqalar) bilan ishlay olish imkoniyatiga ega.

Televizorimiz ekranida har kuni tomosha qiladigan reklama kliplari, turli multfilmlarning ko`pchiligi ana shu animatsion grafika asosida yaratilgan. Misol uchun Uolt Disney studiyasi tomonidan bundan 50 yil mukaddam yaratilgan «Okkiz va etti gnomlar» multfilmi birinchi animatsion tasma bo`lgan . Yoki 1991 yilda ushbu kompaniya tomonidan yaratilgan «Soxibjamol va maxluk» multfilmini kupchiligingiz sevib tomosha kilasiz.

Animatsion effektlarni qo'llash uchun bichimlash uskunalari panelidagi  tugmachasi bosiladi. Natijada quyidagi «Эффекты анимации» (Animatsiya effektlari) uskunalar paneli hosil bo'ladi



Ushbu uskunalar panelidagi asosiy elementlar bilan tanishib chiqamiz:

1. Sarlavha animatsiyasi.  Bunda animatsiya nomi yoziladi.
2. Slayd matnlarining animatsiyasi.  Matn yozilgan barcha slaydlarni ekranda namoyish etadi.
3. Kirish effekti.  Bu piktogrammaga sichqoncha ko'rsatkichi keltirib bosilgandan so'ng, namoyish ekranida belgilarning chiqish tezliklari hosil bo'ladi. Ya'ni, belgilarning ketma-ket tartibda chiqishi ta'minlanadi.
4. Uchish effekti.  Belgilarning namoyish ekranida ketma-ket uchib tushishini ta'minlaydi.
5. Kamera effekti.  Namoyish slaydining tasvirini ta'minlaydi.
6. Portlash effekti.  Bunda slaydga yozilgan axborotlarning ekranda bir marta hosil bo'lib, yo'qolish holati ta'minlanadi.
7. Lazerli effekt.  Slayddagi yozuvlarning uchish tezligini va turli tomonlardan uchib tushish parametrlarini o'zgartirish piktogrammasidir.
8. Yozuv mashinkasi animatsiyasi.  Bunda kiritilgan belgilar endi yozilayotgan yozuv mashinkasidagi kabi hosil bo'ladi.
9. Otib tushirish effekti.  Bunda yaratilgan slayddagi belgilar biror tugma bosilgungacha yashirinib turadi.
10. Animatsiyalarni sozlash.  Bu piktogramma animatsiyalar parametrlarini o'zgartirish uchun xizmat qiladi.

Eslatma: Animatsion effektda ishlash uchun:

- animatsion effekt qo'llanilishi kerak bo'lgan ob'yekt belgilanadi;
- tanlangan animatsion effekt tugmacha (piktogramma)si bosiladi.

2.3. Corel DRAW dasturida naqsh elementlarini chizish bosqishlari

Corel DRAW - bu illyustratsiyalarni vektor grafikasi printsipligiga asoslangan holda yaratuvchi va tahrirlovchi dastur hisoblanadi. Corel DRAW dasturining imkoniyatlari unda turli hil grafik kompozitsiyalarni yaratishga yordam beradi. Ayniqsa dinamik interaktiv instrumentlar, turli hil effektlar va grafik ma'lumotlarni HTML va PDF formatlarida tayyorlash imkoniyatlari yaratilgan. Bundan tashqari Corel DRAW grafik muharririda ranglar palitralarida turli hil ranglarni tanlash mumkin. Shuningdek turli formatlar bilan ishlashda yordam beruvchi turli instrumentlar, import va eksport uchun zarur bo'lgan ko'plagan filtrlar, tasvirni nashr qiluvchi vositalar ijodkor uchun eng yuqori ijodiy muhit yaratib beradi.

Corel DRAW grafik muharririni ishga tushirish. Corel DRAW dasturini ishga tushirgandan so'ng uning oynasi 1-rasmdagidek ko'zga tashlanadi. Grafika ustida ishlash uchun Welcom to Corel DRAW (Corel DRAWga xush kelibsiz) dialog oynasidagi variantlardan birini tanlash lozim. Agar biz New Graphic (Yangi hujjat) variantini tanlasak ekran markazida nashr varag'i bo'lgan - rasmdagidek standart oyna paydo bo'ladi. Ushbu dialog oynasidagi What is New (Yangiliklar) bo'limidagi Corel DRAW dasturiga oid yangi o'zgarishlarni bilib olamiz.




2.3.1-rasm.

Quyida Corel DRAW oynasining asosiy elementlari haqida ma'lumotlar keltiramiz.

Satr boshi qatoridan va nashr varag'idan boshqa barcha yuzalar ishchi soha deb yuritiladi. Oynaning chap burchagida grafika paneli, o'ng tomonida esa ranglar

palitrasi joylashgan. Oynaning yuqoridagi chekkasidan ketma-ket holda satr boshi, menyu satri, standart instrumentlar paneli va atributlar paneli joylashgan. Oynaning pastki qismida gorizontal aylantirish yo`lchasi, undan pastda esa holat satri joylashgan. Oynaning markazida nashr varag`i joylashgan. Soyali ramka esa varaq chegarasi hisoblanadi. Varaqni o`rab turgan oq maydon esa hujjat oynasining ishchi maydoni deyiladi.



2.3.2-rasm.

Графика панели. Интерактив instrumentlar. Графика панели. Grafika panelida grafik asar yaratish uchun zarur bo`lgan instrumentlar joylashgan. Shuningdek grafika panelida ob'ektlarning rangini, shaklini o`zgartiruvchi qo`shimcha instrumentlar ham mavjud. Ba'zi instrumentlar tugmalarining o`ng tomonidagi pastki qismida kichkina qora uchburchakliklar qo`yilgan. Agar bunday tugmani "sichqoncha" bilan bir oz vaqt bosib tursak, undan qo`shimcha instrumentlarning tugmalari ochiladi.



2.3.3-rasm.


Quyidagi tablitsada grafika panelidagi barcha instrumentlar va ularga qo'shimcha bo'lgan instrumentlarning asosiy bajaradigan vazifalari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan:

T/r	Instrument	Qo'shimcha instrumentlar	Bajaradigan vazifalari
1	Pick (ko'rsatgich)		Ob'ektlarni tanlash va qayta tuzish
	Shape (shakl)	Knife (Pichoq) Eraser (o'chirg'ich) FreeTransform (Erkin holatda o'z-gartirish)	Kontur bog'lamlarini surish hisobiga ob'ektlarning shaklini o'zgartirish. Grafik ob'ektlarning qismlarini qirqish va chiziqlarni birlashtirish. Ob'ekt qismlarini o'chirish. Ob'ektlarni o'zgartirish va qayta tuzish.
3	Zoom (Macштаб)	Pan (varaqli surish)	Ob'ektlarni kattalashtirilgan yoki kengaytirilgan holatda ko'rish. Varaqli hujjat oynalari chekkasiga joylashtirish.
4	Freehand (egri)	Bezier (Egri Beze) Artistic (Badiiy vositalar) Dimension (o'lcham chiziqlari) Connector Line (Birlashtiruvchi chiziq)	Egri shakldagi chiziqlarni xuddi qalamda chizgandek chizish "Nuqtalarni birlashtirish" va egri shaklni boshqarish orqali egri chiziqar chizish. Turli tuman badiiy effektlarni qo'llagan holda mo'yqalam holatida rasm chizish. Ob'ektlar yoki ular orasidagi o'lchamlarni qo'yish uchun o'lcham chiziqlari chizish. Ob'ektlar orasidagi tutashuv chiziqlarni chizish.
5	Rectangle (To'g'rito'rt-		Turli o'lcham va nisbatdagi to'g'ri to'rtburchaklik chizish

	burchaklik)		
6	Ellipse (Ellips)		Turli o`lcham va nisbatdagi ellipsnlarni chizish.
7	Polygon (Ko`p burchaklik)	Spiral (Spiral) Graph Paper (Diagramma to`ri)	Turli qirrali ko`pburchaklik va yulduzlar chizish. Spiral chizish. Turli hil qatorli diagramma to`ri chizish.
8	Text (Tekst)		Figurali yoki oddiy tekst kiritish
9	Interactive Fill(Interaktiv quyish)		Ob'ektlarni interaktiv bo`yash
10	Interactive Transpanency (Shaffoflikni interaktiv tuzish).		Ob'ektlar shaffofligini interaktiv tuzish
11	Interactive Effects (Effektlarni interaktiv tuzish)	Interactive Blend (qadam-baqadam o`tishni interaktiv tuzish) Interactive Contour (Oreolni interaktiv tuzish) Interactive Distortion (Interaktiv deformatsiyalash) Interactive Envelope (Egiluvchi shakllarni interaktiv tuzish) Interactive Extrude (hajmni interaktiv tuzish) Interactive Drop Shadow (Soyani interaktiv tuzish)	Ob'ektlarning qadam-baqadam o`tishini interaktiv tuzish.  Boshqa ob'ektlarning shaklini takrorlovchi ob'ektlarni interaktiv tuzish. Ob'ektlarni interaktiv deformatsiyalash.  Ob'ekt shakllarini interaktiv egish.  Ob'ektlar uchun uch o`lcham li effektzni immitatsiyalash. Ob'ektlardan tushuvchi yarimtonli soyani interaktiv tuzish.
12	Eyedropper (Tomizgich)	Paintbucket (To`ldiruvchi)	Ob'ektning rangini tanlab rang kiritish. Ob'ektga standart rang to`plamidan rang quyish.

Asosiy menyu. Asosiy menyu satri Corel DRAW ekranining yuqorigi qismida, satr boshi qatorining ostida joylashgan. Bu dasturdagi ekranning xohlagan joyiga qo`yish mumkin bolmagan, ma`lum joyga ega bo`lgan yagona element hisoblanadi. Asosiy menyu 11 punktdan iborat. Bu menyuga foydalanuvchi qo`shimcha maxsus komandalarni ham qo`shishi mumkin.

Agar asosiy menyuning hohlagan bir punktini bossak, undan komandalar ro'yxati ochiladi. Menyudagi komandani tanlash uchun "sichqoncha"dan yoki shu komandaga mos keluvchi klavishni bosish mumkin. Masalan, Color Management (ranglarni boshqarish) dialog oynasini ochish zarur bo'lsa, Tools (servis) menyusini "sichqoncha" bilan bosib keyin "S" klavishini bosish mumkin. "Sichqoncha"dan tashqari klavishlardan ham foydalanish ishni tezlashtirishga yordam beradi.




2.3.4-rasm.

Windows sistema menyusi. Hujjat oynasidagi sistema menyusi belgisi menyu satrining chap burchagida, File (Fayl) komandasidan chaproqda joylashgan. O' hujjat varag'i fonida Corel DRAW (havo shari) emblemasi ko'rinishida turadi.

Sistema menyusi Windows sistemasi oynasini boshqaruvchi standart komandalardan iborat, unda Restore (tiklash), Move (qayta joylashtirish), Size (o'lcham), Minimize (yopib qo'yish), Maximize (ochish), Close (yopish), Next (keyingi) kabi komandalar mavjud.

Corel DRAW asosiy oynasining sistema menyusi Corel DRAW so'zining chap tomondagi havo shari belgisini bosish orqali yoki ALT - PROBEL klavishlarini birgalikda bosish orqali chaqiriladi. Sichqonchaning o'ng tugmasini bosish yordamida menyuni chaqirish.




2.3.5-rasm.

Windows operatsion sistemasida ekranning hohlagan nuqtasida sichqonchanning o'ng tugmasini bosish orqali ba'zi bir harakatlar qilishadi. Bu imkoniyatdan ham Corel DRAW grafik muharririda keng foydalaniladi. O'ng tomondagi tugmani bosish orqali kontekst menyuni chaqiriladi.


Bu rasmda Document (hujjat) kontekst menyusi ko'rsatilgan. Biz undagi Create Object (ob'ekt yaratish) komandasini bosish orqali grafika panelidagi instrumentlarni tanlash uchun zarur komandalar menyusini ochamiz.

Keyingi rasmda Object (ob'ekt) menyusi tasvirlangan. Bu menyuni ajratilgan ob'ektlar guruhini ustiga borib o'ng tomondagi tugmani bosish orqali chaqiramiz. Bunday menyulardagi komandalar chaqirilayotgan daqiqalardagi holatga bog'liq bo'lganligi uchun kontekst menyusi deb yuritiladi.




2.4.6-rasm.

Toolbar (Instrumentlar paneli) kontekst menyusi. 2.4.7-rasmda ko'rsatilgan Toolbar (instrumentlar paneli) kontekst menyusi eng qiziqarli va kerakli menyulardan hisoblanadi. Bu menyuni sichqonchanning o'ng tugmasini standart instrumentlar panelida, atributlar panelida yoki grafika panelida bosish orqali chaqiriladi. Bu menyuni orqali instrumentlar panelini tanlash mumkin.



2.4.7-rasm.

Standart instrumentlar paneli. Standart instrumentlar paneli asosiy menyuyu satrining ostida joylashgan. Bu panelda Corel DRAWning turli funktsiyalarini tez va qulay topib berishni ta'minlovchi tugmalar joylashgan. Bu tugmalardan tashqari panelda Zoom levels (Масштаб) nomli ochiluvchi ro'yxat joylashgan.



2.4.8-rasm.

Zoom levels (Масштаб) ochiluvchi ro'yxat orqali 12 hil Масштабни tanlash mumkin:

- **To Selected (faqat ajratilgan ob'ektlar)**
- **To Fit (hamma ob'ektlar)**
- **Po Page (Varaqni yaxlit holatda ochish)**
- **To Width (eni bo'yicha)**
- **To Height (balandligi bo'yicha)**
- **10 %, 25 %, 50 %, 75 %, 100 %, 200 %, 400 %.**

Bundan tashqari Zoom (Масштаб) parametri maydonida standart bo'lmagan Масштаб koeffitsentlarini ham berish mumkin. Buning uchun talab qilinayotgan Масштабни protsentda berib ENTER klavishini bosish kerak.

Standart instrumentlar panelini har kim o`zining ish uslubiga moslab tuzib olishi mumkin.


Agar sichqoncha ko`rsatkichini instrumentlar panelidagi biron bir tugmaga ustiga qo`yib bir oz vaqt kutib tursak, tugmaning nomi yozilgan ma'lumot paydo bo`ladi. Shunda ekranning pastki qismidagi holat satrida bu tugmaning funktsiyasi haqidagi qo`shimcha ma'lumotlar paydo bo`ladi.

Jadvalda standart instrumentlar panelining tugmalari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

New (yaratish)	Yangi grafik hujjat yaratadi.
Open (ochish)	Grafik hujjat faylini ochadi.
Save (saqlash)	Fayldagi faol hujjatni saqlaydi. Agar fayl bungacha saqlanmagan bo`lsa Save As (qanday saqlash) dialog oynasi paydo bo`ladi.
Print (nashr) Cut (qirqish)	Print (nashr) dialog oynasini chaqiradi. Ekrandan ajratilgan ob'ektni olib, uni almashuv buferiga joylashtiradi.
Copy (nusha olish)	Asl nushani olib tashlamasdan turib ajratilgan ob'ektdan nusha oladi va uni almashuv buferiga joylashtiradi.
Paste (Qo`yish)	Almashuv buferidagi ma'lumotni Corel Draw varag`iga joylashtiradi.
Undo (olib tashlash) Undo Multiple actions (Bir necha harakatni olib tashlash)	Oxirgi bajarilgan operatsiyani olib tashlash. Bajarilish tartibiga qarab oldingi operatsiyalar ro`yxatini aks ettiradi, bu esa bir necha harakatlarni olib tashlaydi. Dastlabki holatga qaytarish.
Redo (takrorlash) Redo Multiple actions (harakatlar guruhini olib tashlash)	Olib tashlash tartibiga qarab oldingi operatsiya ro`yxatini aks ettiradi va bu harakatlarni qaytadan qo`llashga imkon beradi.
Import (import) Export (eksport)	Import (Import) dialog oynasini chaqiradi. Export (Eksport) dialog oynasini chaqiradi.
Zoom Levels (Macштаб)	Macштаб ro`yxatini ochadi.
Application Launcher (ilovani yuklash)	Corel DRAW ilovalarining ro`yxatini ochib beradi.
Corel Craphics Community (Corel Craphics ham jamiyati)	Corel DRAW paketi ilovalaridan maksimum foyda olishga yordam va foydali maslahatlar beruvchi Corel Web - varag`ini chaqirib beradi.
What`s This Help (Bu nima ma'lumoti)	Sichqoncha ko`rsatkichini so`roq belgisiga aylantirib, kontekst ma'lumotnomasi rejimini ishga tushiradi, Shundan keyin hohlagan element ustiga borib tugmani bossangiz shu element to`g`risidagi ma'lumotni beradi.

Atributlar paneli. Atributlar paneli (Property Bar) - bu hozirgi daqiqada qanday instrument yoki ob'ekt faol bo'lsa shunga qarab tarkibi va instrumental vositalari o'zgarib turuvchi panel hisoblanadi.

Atributlar paneli standart instrumentlar paneli ostida joylashadi.



2.4.9-rasm.

Atributlar panelida ishlash jarayonida ko'plagan menyu komandalari va dialog oynalaridan foydalanishga hojat qolmaydi.

Shunday qilib atributlar paneli qanday instrumentni ochsangiz shunga qarab o'zgarib turadi.

Dialog oynasi. Corel DRAW da ba'zi bir harakatlar yoki komandalarni bajarish jarayonida qo'shimcha informatsiya zarur bo'lsa dialog oynasi paydo bo'ladi.

Dialog oynasi bilan ishlashda sichqoncha yoki klaviaturadan foydalanish mumkin.

Klaviatura bilan ishlash jarayonida dialog oynasi elementining birisidan ikkinchisiga o'tish uchun TAB klavishasini bosish lozim. Kerakli elementni topib olgandan so'ng klavish yordamida bayroqchani qo'yish yoki olib tashlash mumkin. Bundan tashqari undan ma'lumotlar ham kiritish mumkin.

Tutashuvchi oynalar. Corel DRAWning ilgarigi versiyalaridagi ko'plagan dialog oynalarining o'rniga tutashuvchi oynalar paydo bo'lib, bu tutashuvchi oynalar bir qancha qulayliklarga ega. Masalan Color Palette Browser (Palitralarni ochish) tutashuvchi oynasini olib qarasak, bu tutashuvchi oyna ishchi maydonning o'ng chekkasidagi ranglar politrasi yonida joylashgan bo'lib, bu oynani ishchi maydonning hohlagan chekkasiga tutashtirish va yulib olib boshqa qulay maydonga ham joylashtirish mumkin.

Tutashuvchi oynalarni View/ Dockers (ko‘rinish/ Tutashuvchi oynalar) komandasi yordamida chaqirish mumkin.

Tutashuvchi oynalar quyidagilardan iborat:

- Object Manager (ob'ektlar despetcheri)
- Object Data Manager (ob'ektlar haqida ma'lumotlar beruvchi despetcher)
- View Manager (ko‘rinishlar despetcher) CTRL+F2
- Link Manager (Aloqa despetcheri)
- Internet Bookmark Manager (internet zakladkalari despetcheri)
- HTML Object Conflict (HTML ob'ektlar koeffitsenti)
- Bitmap Color Mask (rastrli rangli maska)
- Lens (Linza) Alt +F3
- Artistig Media (Badiiy vositalar)
- Transformation (o‘zgartirish)
- Shaping (shakllar)
- Color (rang)
- Color Palette Browser (palitrani ochish)
- Color Styles (rang stillari)
- Graphic and Special Characters (grafika va tekst stillari)
- Symbols and Special Characters (Simvollar va maxsus belgilar) CTRL + F11
- Scrapbook (Albom)
- Script and Preset Manager (makroslar va zagotovkalar despetcheri):


Agar ekranda bir nechta tutashuvchi oynalar ochiq bo‘lsa, oxirgi ochgan oynangiz undan oldingisi bilan birga aks etadi, ikki va undan ko‘p bo‘lgan tutashuvchi oynalar guruhni tashkil qiladi. Bu oynalarni pastga o‘chirib qo‘yib, kerakli paytda ancha oson chaqirish mumkin.

Primitiv shakllar va diagramma to‘rlari chizish. *To‘rtburchakliklar, ellipslar, ko‘pburchakliklar, yulduzlar, spiral va diagramma to‘rlari.* To‘rtburchaklik - bazaviy shakllarning eng oddiysi hisoblanadi. Bu shaklni yaratish uchun grafika panelida maxsus vositalar qo‘yilgan. Bu oddiy va tushunarli bo‘lgan instrument bilan turli shakl va o‘lchamdagi to‘rtburchaklikni yaratish mumkin.

Bu komandani ishga tushirish uchun grafika panelidagi Restangle (to'rtburchaklik) instrumenti yoki F6 funktsional klavishi tanlanadi.

Bundan tashqari hujjat oynasida sichqonchaning o'ng tugmasini bosish orqali kontekst Create Object/ Rectangle (F6)- ob'ekt yaratish/ to'rtburchaklik (F6) komandasini tanlash mumkin.

Rectangle (To'rtburchaklik) komandasini tanlagandan keyin sichqonchaning ko'rsatgichi kichkina xoch shakliga kiradi va chizmaning boshlang'ich nuqtasini belgilab beradi. Xochning o'ng tomonida pastda esa kichkina to'rtburchaklik




tasvirlangan bo'ladi.

To'rtburchak yaratish uchun burchak nuqtasining ustida sichqonchaning chap tugmasini bosib turib diagonal bo'ylab to'rtburchakning qarama-qarshi burchagiga qarab tortiladi. Sichqonchaning tugmasini qo'yib yuborgandan keyin to'rtburchak hosil bo'ladi. Chizish jarayonida atributlar panelida to'rtburchakning markaz koordinatalari, shuningdek eni va bo'yining aniq o'lchamlari paydo bo'ladi.

Agar to'rtburchakni yaratish jarayonida CTRL klavishini bosib tursak to'rt tomini ham bir hil o'lchamda va nisbatdagi to'rtburchaklik hosil bo'ladi.

Chizilgan to'rtburchaklik rasmda quyidagi ko'rinishda bo'ladi:



Markazda joylashgan X harfi ko'rinishdagi belgini bosib turib sursangiz va uni boshqa joyga olib borib qo'yishimiz mumkin.


Corel DRAW dasturida burchaklari tutashib ketgan to'rtburchaklikni hosil qiluvchi instrument yo'q. Bu vazifani esa Shape (shakl) instrumenti yordamida bajaramiz. Bu instrumentni to'rtburchakni hohlagan nuqtasiga olib borib bosamiz

va chetga suramiz. Shundan keyin to'rtta burchak birdaniga yoy holicha tutashadi. To'rtburchakning burchaklarini yoy holida tutashtirishning interaktiv usuli juda qulay. Bunda har bir burchakni bo'lak holatda tutashtirish mumkin. Buning uchun Z klavishini bosib, bog'lamni sichqoncha bilan bosish kerak. Shundan keyin Shape (shakl) instrumenti yordamida suriladi va to'rtburchakning bitta burchagi yoy holida tutashtirish zarur bo'lsa Z klavishi bilan birga SHIFT klavishi ham bosiladi va kerakli burchaklar ketma-ket tutashtiriladi. To'rtburchaklik aktiv ob'ektga aylangandan keyin, atributlar panelida tutashma foizini hohlagancha o'zgartirish mumkin.

Ellips yasash. Ellips primitiv shakllarning eng ko'p foydalaniladigani hisoblanadi. Bu instrument yordamida deyarli barcha grafik ob'ektlarning tasvirini ishlashda foydalanish mumkin.

Ellips yasashda uning o'lchamini aniq tasavvur qilish lozim.

Ellips yasash uchun grafika panelidagi Ellipse (ellips) tugmasini bosamiz. Bundan tashqari F7 funktsional klavishni bosib chaqirish mumkin. Shundan keyin kursor pastda rasmda ko'rsatilgandek shaklga kiradi.




Instrument tanlab bo'lganimizdan keyin tasavvur qilinayotgan to'rtburchakning biron bir burchagidan tutib qarama-qarshi tomonga tortamiz. Shunda atributlar panelida ellipsning eni va bo'yi, shuningdek markaz koordinatalari paydo bo'ladi. Chizish jarayonida ellips o'lchamlari atributlar panelida ellipsning eni va bo'yi, shuningdek markaz koordinatlari paydo bo'ladi. Tugmani qo'yib yuborganimizdan keyin ellips paydo bo'ladi. Holat satrida esa ellips shu daqiqada ajratib, belgilangan shakl ekanligi haqidagi ma'lumot paydo bo'ladi. Chizish jarayonida ellips o'lchamlari atributlar panelida dinamik ravishda yangilanib turadi. ellips chizganda ham xuddi to'rtburchakni chizgandagiga o'xshab, klavish modifikatordan foydalanish mumkin.


Bunda CTRL klavishini bosib ushlab tursak ellips emas, aylana hosil bo'ladi. SHIFT klavishini bosib tursangiz aylana markaz nuqtadan hosilbo'ladi.

Ko'pburchakliklar va yulduzcha yasash. Ko'pburchaklik Corel DRAWdagi eng murakkab grafik primitivlardan hisoblanadi.

Ko'pburchaklik yasash uchun grafika panelidagi Polygon (ko'pburchaklik) tugmasini bosamiz yoki rasm chizish oynasining ustiga borib sichqonchaning o'ng tugmasini bosamiz va kontekst menyusidagi Create Object/ Polygon (ob'ekt yaratish/ ko'pburchaklik) komandasini tanlaymiz. Shundan keyin kursor pastda ko'rsatilgandek ko'rinishga kiradi:



Chap tomondagi tugmani tutib turib sichqoncha ko'rsatkichini suramiz va rasmda ko'rsatilgandek besh qirrali ko'pburchaklik hosil bo'ladi:



Turli shakl va o'lchamdagi chiziqlar chizish. F5 klavishini bosish orqali Curve (egri chizik)nomli ochiluvchi panelning xoxlagan bir instrumentini aktivlashtirishimiz mumkin. Unga panelni ochganimizda oxirgi foydalanilgan instrument aktivlashadi.

F5 klavishini bosganimizda Artistig Media (badiiy vositalar) instrumenti aktivlashadi.

Freehand (Egri chiziq). Freehand (egri chiziq) instrumenti qalamga o'xshaydi. Kursorni ekranda yuritganimizda unda chiziq iz qoladi. Lekin juda aniq chiziqlarni Chizish uchun grafik planshetlardan foydalanish juda qulay. CHunki sichqoncha qo'ldagi titrashlarni ham aniq seza oladi va chiziqlar tekis chiqmasligi mumkin.

Rasm chizish jarayonida Corel DRAW chiziqlar o`rtasiga notekis intervalda bog`lamlar qo`shib boradi. Lekin qiyshiq chiziqlarda qanchalar bog`lam kamroq bo`lsa shuncha yaxshi chiqadi. Chunki har bir bog`lamdan keyin chiziq egilib, qiyalab boraveradi. Qiya chiziqlar qo`l harakatini aniq takrorlashi uchun Freehand (egri chizik) instrumenti parametrlari va atributlar panelini keraklicha tuzib chiqish zarur bo`ladi.

Order (tartib) podmenyusi va Arrange (monta) menyusidan tashqari ob'ektlarni tartibga keltirish uchun Object (ob'ekt) kontekst menyusini va atributlar panelidan foydalanish mumkin. Bundan tashqari klavishlarning quyidagicha kombinatsiyalaridan foydalanish mumkin:

- SHIFT+PGUP - oldingi planga
- SHIFT+PGDN - orqa planga
- CTRL+PGUP - oldinga
- CTRL+PGDN - orqaga

1. New layer (qatlam, yaratish)

2. Show Object Properties (ob'ektlarning xususiyatlarini ko`rsatish).

3. Edit Across Layers (hamma qatlamlar)

4. Layer Manager View (qatlam dispatcher rejimi).

New Layer (qatlam yaratish) tugmasini bosib hujjat tarkibida yangi qatlam paydo bo`ladi.

Ikkinchi tugma esa har bir ob'ektning xususiyatlarini yoritib beradi yoki uni olib tashlashi mumkin.

Uchinchi tugma bilan esa hujjatning barcha qatlamlari bilan aloqa qilish rejimini ochib beradi yoki uni olib tashlaydi.

To`rtinchi tugma esa ob'ektdan o`chirib, faqat qatlamlarni ko`rinarli qilib qoldiradi.

Lineyklar, yo`naltiruvchi chiziqlar va koordinatalar to`ri. Lineyklar hujjat oynasining yuqorigi va chap tomonlarida aks etadi. Lineykalardan foydalanish jarayonida turli-tuman o`lchov birliklaridan foydalanish mumkin.

Dyuym - Corel DRAW dasturiga qabul qilingan o'lchov birliklaridan hisoblanadi. Chunki dyuym dastur mahsulotning barcha elementlarida qo'llaniladi.

Dyuym - 2,54 smga teng.

Millimetr - metrik sistemadagi eng kichik o'lchov birligi bo'lib u 0,1 santimetrغا teng.

Pik va punktlar - bu badiiy bezash va tipografiyada qo'llaniladigan o'lchov birligi hisoblanadi. Bitta dyuymda 72 punkt mavjud. Pik 12 punktga teng. Tarkibiy kattaliklarni pik va punktda yozishda ular o'nlikka bo'lib vergul qo'yiladi. Masalan, 1,3 yozuvi 1 pik va 3 punktni bildiradi, bu esa 15 punktga teng.


Punktlardan shriftni o'lcham ini va satr oralig'i intervalini o'lchashda foydalaniladi.

Piksel (pixel) inglizcha so'z bo'lib, "picture element" (tasvir elementi) mazmunini beradi. Boshqacha qilib aytganda piksel bu kompyuter ekranidagi rasmning rangli nuqtachasi hisoblanadi. Piksel rastrli tasvirlarni o'lcham ini o'lchashdagi bazaviy o'lchov birligi hisoblanadi.

Ob'ektlarni egri chiziqlar to'plamiga aylantirish. Convert to Curves (egri chiziqlar to'plamiga aylantirish) komandasining asosiy vazifasi to'rtburchaklik, ko'pburchaklik, ellips va tekstlarni tahrirlash uchun qulay bo'lgan yopiq qiyshiq chiziqlar to'plamiga aylantirishdir. Corel DRAW dasturida grafik loyihalar ustida ishlash jarayonida ko'pgina turli tuman shakllar yaratishga to'g'ri keladi. Rasmlardan tashqarideyarli ularning barchasi standart to'g'ri to'rtburchaklik, ellips va qiya chiziqlardan boshlanadi. Shularga o'xshash standart ob'ektlarga Corel DRAW ning turli grafik effektlarini qo'llashga to'g'ri keladi. Lekin ko'pincha effektlarni qo'llaganingiz bilan olingan ob'ekt o'zining oldingi ko'rinishini saqlaydi. Masalan, ellipsga ekstruziya effektini qo'llasak, ob'ekt baribir ellips ko'rinishida qoladi.

2.4.11-rasmda egri chiziqlar to'plamiga aylantirilgan ellips tasvirlangan. Rasmdan ko'rinib turibdiki Shape (shakl) instrumentini tanlaganimizdan so'ng ob'ektda to'rtta bog'lam pado bo'ladi. Rasmning o'ng tomonidagi ob'ekt esa

tahrirlangan ellips bo`lib, bog`lamlar ni surish orqali umuman boshqacha shaklga kirgan.



Egri chiziqlar to`plamiga
aylantirilgan ellips

Tahrirlangan ob'ekt

2.4.11-rasm.

Qo`shimcha effektlar. *Effektlarni qo`llash*. Corel DRAW amaliy dasturida ob'ektlar bilan ishlashda bir qancha effektlarni qo`llash mumkin. Bular quyidagi lardan iborat:

1. Egish effekti.
2. Deformatsiya effekti
3. Perspektiva effekti
4. Ekstruziya effekti
5. Qadam- baqadam o`tish effekti
6. Kontur (oreol) effekti
7. Soya effekti
8. Linza effekti
9. SHaffoflik effekti

Egish effekti bilan ishlash. Egish effekti ob'ekt shaklini mustaqil ravishda egishga yordam beradi. Bunday effektini ob'ektlar guruhiga qo`llashdan oldin shu ob'ektlarni guruhlash lozim.

Egish effekti Interactive Envelope (egishni interaktiv tuzish) instrumenti yordamida amalga oshiriladi. Bu instrument grafika panelidagi instrumentlar to`plamida joylashgan. Interactive Envelope (egishni interaktiv tuzish) instrumenti tugmasi panelda chapdan to`rtinchi bo`lib joylashgan. Agar ob'ektni belgilab olib shu tugmani bossak ob'ekt atrofida avtomatik ravishda 8 bog`lamdan iborat bo`lgan gabarit to`g`riburchaklik paydo bo`ladi. Xuddi boshqa bog`lamlar kabi ular ham markerlar bilan ta'minlangan. Markerni bosib turib, uni sichqonchabilan sursak ob'ektga kerakli shaklni bera olamiz.

Kompyuter grafikasi

Kompyuter grafikasi

«Kompyuter grafikasi»

2.4.12-rasm.

Tort-itar

zigzag

aylantirish

Perspektiva effekti. Perspektiva effekti tasvirga ko'ruv chizig'i yo'nalishini hisobga olgan holda chuqurlik va hajm taasurotini beradi. Perspektiva effektini qo'llash orqali ob'ekt sahna foni chuqurligida kichraygandek tuyuladi.


Perspektiva effektini bitta ob'ektga va ob'ektlar guruhiga qo'llash mumkin. U bir vaqtning o'zida bir nechta ob'ektga qo'llanilishi mumkin emas. Lekin uni bir ob'ektdan boshqa ob'ektga nusxa olib o'tkazish mumkin.

- Perspektiva effektini qo'llash uchun oldin ob'ekt yoki ob'ektlar guruhini belgilab olish lozim. Keyin Effects/Add Perspective (effektlar/perspektivani qo'llash) komandasi tanlanadi. Shundan keyin ob'ekt yoki ob'ektlar guruhi burchaklarida bog'lamlari bilan to'g'ri burchakli punktir ramka bilan ajraladi. Ramka ichi esa vertikal va gorizontal holatdagi yo'naltiruvchi chiziqlar bilan qoplanadi.

- Ob'ektga perspektiva effektini berish uchun esa avtomatik ravishda paydo bo'luvchi Shape (shakl) instrumentidan foydalanamiz. Buning uchun esa bu instrument yordamida ob'ekt burchaklaridagi bog'lamlar dan birini ushlab kerakli masofaga tortamiz.

- Bog'lamni surish yunalishi ob'ektga qaysi turdagi (bir yoki ikki nuqtali) perspektiva qo'llanilishiga ta'sir qiladi.

Agar CTRL klavishini ushlab turib bog'lamlar dan birini vertikal yoki gorizontal bo'yicha sursak bir nuqtali perspektiva effekti hosilbo'ladi. Bog'lamni tortish jarayonida biz CTRL klavishini ushlab turmasak ikki nuqtali perspektiva effektini hosilqilgan bo'lamiz.



2.4.14-rasm.

Ekstruziya effekti. Ekstruziya effekti yalpoq ikki o'lcham li ob'ektlarga hajm ya'ni uchinchi o'lcham illyuziyasini beradi. Ekstruziya effektini qo'llashda Corel DRAW ob'ektning ko`rinmas qirralarini quradi. Proyeksiyalarni berilgan tutashuv nuqtali perspektivaga aylantiradi. Ekstruziya effekti Interactive Extrude (xajmni interaktiv qurish) instrumenti yordamida yaratiladi. Bu instrument interaktiv instrumentlar panelida joylashgan, shuningdek atributlar panelining turli tuman elementlaridan foydalangan holda hosilqilinadi.

III-Bob. Kasb-hunar kollejlarida naqqoshlik darslarining o'qitilish va o'rganilish darajasi

3.1. -§. Kasb-hunar kollejlarida naqqoshlik san'atining o'qitilishi

Ilmiy tadqiqot ishimizming asosiy jihatlaridan biri tajriba-sinov darslarida olib borishdir. Bunga biz bir necha dars ishlanmalarini tayyorlab tajriba-sinov sinfida uni sinab ko'rdik. Nazorat sinfida o'z dasturiy rejasi asosida o'qituvchi olib bordi, o'qituvchi darsining tashkiliy tomonlarini, didaktik materiallarni tayyorladilar. Darslar quyidagicha olib borildi. Dars biz taklif qilgan reja asosida bo'ldi.

Mavzu: Naqshlar chizishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. 4 soat amaliy mashg'ulot.

Darsning maqsadi: amaliy san'at ishlatiladigan naqshlar va uning turlari bilan o'quvchilarni tanishtirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni estetik, xalq an'analarini, milliy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: Amaliy san'at va naqqoshlikka chuqurroq o'rganishda Samarqand naqqoshlik maktabi rivojini yoritish.

Darsning jihozi: Naqsh turlaridan namunalar, Samarqand naqsh elementlari, andozalar, ma'ruza matni, kompyuter vositalari va boshqa ko'rsatmali materiallar.

Dars turi: Noan'anaviy (munozara, oz fikri bo'lsin, aqliy hujum va boshqalar)

Darsning texnologik tuzilishi:

1. Tashkiliy qism 3-5 daqiqa. Bunda sinf o'quvchilari ruhiy tayyorgarligi, darsfa qatnashishi, salomlashish, materiallarning etarligi o'rganilib bolalar kayfiyati ko'tariladi, dars mareriallarini o'rganishga imkoniyat paydo qilinadi.

2. Ma'ruzani o'quvchilarning o'zlari tayyorlab kelgan matnlar asosida boshlashga harakat qilinadi. Bunga sinf o'quvchilari 4 ta guruhga ketma-ketlik asosida sanatib bo'lib olinadi. Har 4 ta guruhga nom berilishi ishni yaxshi borishini ta'minlaydi.

3. Guruhlarning sardori va yordamchisi belgilanadi. Hamma guruh q'zolarining bilimi, kuchi, mashg'ulotga doir qiziqishlari bir hil bo'lishiga erishish kerak edi. Shularni hisobga olib so'rovnoma o'tkazdik. U quyidagicha edi.

So'rovnoma

1. Siz amaliy san'at deganda nimani tushunasiz?
2. Naqsh elementlarini chizishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga fikringiz qanday?
3. Kompyuter grafikasi deganda nimani tushunasiz?
4. Qanday dasturlar asosida naqsh elementlarini chizish mumkin?
5. Paint dasturi asosida qanday naqsh elementlarini chizish mumkin?
6. Power Point dasturi asosida qanday amallar bajariladi?
7. Taqdimotlar qaysi dastur asosida tuziladi?
8. Corel Draw dasturi haqida fikringiz qanday?
9. Corel Draw dasturi asosida qanday amallar bajarish lozim?
10. Qanday naqshlar bilan bezatilgan me'morchilik bor?
11. Samarqand naqqoshligi nima?
12. Kamoliddin Behzod kim bo'lgan?
13. Nima uchun Mirak naqqosh deyiladi?
14. Amaliy san'atning qanday turlarini bilasiz?
15. Dizayn ham amaliy san'atga doirmi?
16. Naqqoshlik faniga qiziqasizmi? nima uchun ?

Bu savollarga olingan javoblar asosida biz guruhlarni tashkil etganmiz. Albatta bu savollarga javob darsdan tashqari vaqtda o'tkaziladi. Endi shu kabi savollarga o'quvchilar guruhida qanday tayyorgarlik va javob bo'ladi dars davomida o'rganamiz.

Guruhlarni ko'p hollarda fanga oid terminlar bilan ham nomlanadi. Masalan: Atirgul; Islimiy; Grih; Atribut; Bofta; Ritm; doira va hakoza bo'lishi mumkin. Biz 4 guruhni "Islimiy", "Girih", "Ritm", "Bofta" deb nomladik bu so'zlarni eslab qolishi uchun yana bir imkoniyat bo'ladi.

Har bir guruhga a'zo bo'lganlar biz tuzgan savollar bo'yicha ma'ruzasi bilan qatnashadi va bir-birining fikrini guruh a'zolari to'ldirib boradi. Har birida aniq vaqtga amal qilinsa natijali bo'ladi.

Biz yuqorida keltirib o'tgan dars ishlanmasi noan'anaviy amaliy darsi bo'ldi. Albatta buning ta'limiy va tarbiyaviy tamonlari yaxshi natijani ko'rsatadi.

3.2. -§.Tajriba sinov ishlari olib boorish va undan olingan natijalar

Naqqoshlik san'ati amaliy san'atning asosiy turlaridan biri ekanligini bir necha bor aytib o'tgan edik. Shuning uchun ham naqshlar chizish masalasi biz o'rgangan kollejlarda uzluksiz hamma bosqichda ham olib borilmaydi. Naqqoshlik fani uchun o'quv dasturi ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan 68 soatga mo'ljallangan dastur asosida olib borilmoqda.

Biz kuzatgan, darslarni taxlil qilib organganlarimiz asosida quyidagicha tajribalar olib bordik.

Buning uchun maxsus amaliy san'atning naqqoshlik faniga oid tajriba-sinov ishlarining dasturi va metodikasi ishlab chiqildi.

Dissertasiyaning tajriba-sinov ishlari maqsadi: kollejlarda naqqoshlik misolida amaliy san'atning rivojlanishini o'quvchilar talimiy ishlarini o'tkazish, metodikasini ishlab chiqish va sinab ko'rib yaxshi tomonlarini aniqlash bo'ldi.

Kollejlarda naqqoshlikni o'rganish bo'yicha tajriba-sinov ishlarining vazifalariga shunday muhim jihatlarni belgiladim;

- naqqoshlik san'atining ta'limiy o'rganilishidagi imkoniyatlarni aniqlab olish;
- naqqoshlik fanining amaliy san'atdagi o'rnini aniqlash;
- naqqoshlikning o'qitilishi jarayonini, o'tilishini o'rganib olish;
- naqqoshlik san'atiga oid dars ishlanmalarimizni amalda sinab ko'rish;
- amaliy san'atga oid naqqoshlik san'ati fanini kompyuter texnologiyalari asosida o'rganishni takomillashtirish.

Bunday vazifalarni amalga oshirish uchun biz tajriba-sinov maydonchalari sifatida bir necha kollejlarni, jumladan, Samarqand Qurilish va milliy

hunarmandchilik kolleji va San'at kollejini belgiladik. Bu tajriba-sinov ishlarimizda 4 nafar tajribali o'qituvchi va 4 ta o'quvchilar guruhidan 100 nafari qatnashdi. Shu keltirib o'tilgan kollejlardan 2 tadan guruh tanlanib biri nazariy guruhi, biri esa tajriba guruhi bo'ldi. Naqqoshlik haqidagi dars mashg'ulotini nazorat guruhlarida kollej o'qituvchilarining o'zlari olib bordilar. Bular doimiy olib borilayotgan reja asosida bo'ldi.

Biz o'z maqsad va vazifalarimizni belgilanganidek amalga oshirish uchun kerakli materiallarni tayyorlab oldik. Bunda reja, dars ishlanmalarni o'qitishga oid didaktik materiallar, o'quvchilarning naqqoshlikka oid bilimlarini o'rganib, sinash uchun uning mezonlari belgilandi. Shuningdek bir qancha mavzuga oid testlar, so'rovnomalar ham tayyorlandi. Shuning bilan birga kollejdagi biz tajriba qilayotgan o'quvchilar bilimi birinchi bosqichda ham sinab ko'rildi.

Biz bergan materiallar asosida o'qituvchi o'quvchilar naqqoshlik san'ati, rivojlanishi tarixi, naqqosh ustalar, tarixiy me'morchilik obidalarining bezakli jihatlarini kompyuter texnologiyalari asosida bilishi ham ko'rib chiqildi. O'quvchilar amaliy san'atining naqsh turiga ekanligi sinaldi. Mana shu masalalar biz o'raginib, tajriba qiladigan ishimizda asos bo'lib xizmat qildi.

Tajriba-sinov ishlarini olib boorish uchun tanlab olgan kollejlarda amaliy san'atning naqqoshlik fani o'qitilishi, o'qituvchilarning darslarda qo'llanilayotgan usullari, dars ishlanmalari, darsdan keyingi faoliyatlarning olib borilishi ham aniqlanadi.

Tajriba-sinov ishlari uchun kerakli meteriallar tanlashga biz asosan e'tiborimizni quyidagi ikki omilga qaratish lozim deb bildik.

1. Naqqoshlikni o'rganish va undan foydalanishda naqqoshlik san'atiga oid asarlarni to'g'ri tanlash, olingan materiallarni tizimlashtirish, foydalanish yo'llarining bir necha variantlarini tayyorlab tavsiya etish.
2. Naqqoshlik va amaliy san'atni yaxshi o'zlashtirgan o'qituvchilar naqqoshlikni ham o'z ish faoliyatida foydalanayotganlaridan ishonch hosil qilish, o'rganish, o'z faoliyatimizda ham undan foydalanish.

Naqqoshlik va amaliy san'at rivojlanishida uni o'rganish, materiallar tanlashda bir qancha quyidagicha narsalarni hisobga ham olish kerak deb o'ylaymiz.

- Amaliy san'atga oid materiallarning estetik ko'rinishi.
- Tanlangan materiallar yuksak badiiy saviyada bo'lishiga erishish.
- Naqsh va amaliy san'at buymlari o'quvchilarning yoshiga, xususiyatlariga va kompyuterni bilish darajasiga mos bo'lishi.
- Materiallar o'quvchilarning qobiliyatlariga ham to'g'ri kelishi.
- Naqsh va amaliy san'at durdonalarini to'g'ri tahliliy ko'rinishlari.

Albatta bunday materiallar o'zbek amaliy san'ati materiallarining hamma jihatida uchraydi. Shuning uchun ulardan foydalanishning bir qancha shakllarida amalga oshirish kerak bo'ladi;

1. Naqqoshlik va amaliy san'at bilan o'quvchilarni yaqindan tanishtirish,
2. O'quvchilarga kompyuter texnologiyalari asosida naqshlar andozalaridan chizdirish,
3. Naqqoshlikga doir referat yoki konspektlarni kompyuterda yozdirib borish,
4. Qo'lda va kompyuterda chizilgan naqsh naqsh elementlari va ranglarini farqlashni o'rganish,

Shunday shakllarni amalga oshirishda tajriba-sinov ryejasiga biz shunday mavzularimizni taklif qilgan edik.

3 bosqich 5-semestrda.

Amaliy: 1. Paint dasturida naqsh chizish uslublari - 2 soat;

2. Power Point dasturida naqsh elementlaridan taqdimotlar yaratish bosqichlari - 2 soat;

3. Corel DRAW dasturida naqsh elementlarini chizish bosqichlari - 2 soat.

Bunday berilishiga sabab o'quvchilarda kompyuter savodxonlikni oshirish, dizaynerlik qobiliyatini shakllantirish, amaliy san'atga doir qiziqishlarini takomillashtirishdan iborat.

Pedagogika fanlari doktori, professor S.S.Bulatovning «O'zbek xalq amaliy bezak san'ati» nomli kitobining «Naqqoshlik» bo'limida naqsh elementlarini chizish va o'qish metodikalari yoritib berilgan.

Biz tajrida-sinov ishida kollej o'quvchilarini yuqorida keltirilgan 16 nomdagi so'rovnoma asosida o'tkazdik. Uning natijasi oldiniga shunday bo'ldi. Mana shu savollarga 100 ga yaqin o'quvchilardan javoblar oldik natijasi quyidagicha bo'ldi.

1-jadval

O'quvchilarning aniqlovchi so'rovnoma berilgan javoblari haqida.

Darajalar	Tajriba-sinov sinflar. 100 o'quvchi		Nazorat sinflari. 100 o'quvchi	
	Tajriba-sinovning boshlanishida	Tajriba-sinovning oxirida	Tajriba-sinovning boshlanishida	Tajriba-sinovning oxirida
Yuqori	21 (21)	31 (31)	20 (20)	26 (26)
O'rta	41 (41)	42 (42)	54 (54)	41 (41)
Past	38 (38)	27 (27)	26 (26)	33 (33)
	100 (100%)	100 (100%)	100 (100%)	100 (100%)

O'tkazilgan tadqiqotimizning natijalarini tahlil qilar ekanmiz shunday natijalar olindi. O'quvchilarning naqqoshlik va amaliy san'at rivojlanishi o'sishi tajriba qilingan sinfda yuqori ko'rsatkichlar 31% ni, nazorat sinflaridagi bu ko'rsatkich 26%ni tashkil qilganini ko'rdik. O'z-o'zini ko'rinib turibdiki farqi bir-biridan 5% tashkil etmoqda. Bu biz taklif qilgan metodikaning to'g'ri ekanligini ko'rsatib turibdi. Huddi shunday qaraydigan bo'lsak o'rtacha ko'rsatkichlar ham ancha farqlanganini ko'rish mumkin bo'ldi. Past ko'rsatkichlar esa yuqori va o'rta ko'rsatkichlar hisobiga nazorat sinflarida anchaga oshgan. Tajriba-sinov sinflarida bu ko'rsatkichlar sezilarli darajada kamayganligini ko'rdik. Tajriba-sinov natijalaridan olgan ma'lumotlarimiz asosida ishlarni ijobiy baholash uchun imkoniyat paydo qildi. Bu naqqoshlikga oid mavzuda olib borilgan tajriba-sinov ishlarimiz natijasi yaxshi bo'lganligini hamma ko'rsatkichlarda ko'rdik. O'quvchilar naqshlarni kompyuter asosida chizish ancha yaxshi bilim, ko'nikma

va malakalarga ega bo'lishdilar. O'tkazilgan tadqiqot ishlarimizning natijalariga ko'ra quyidagicha xulosalarga kelishimizga imkon yaratildi.

1. Ikki yil davomida olib borgan tadqiqotimiz shuni ko'rsatdiki, kollejlarning tasviriy san'at (amaliy san'at) da o'qiydigan o'quvchilarini naqqoshlik rivoji bilan tanishtirish ularda nafosatni idrok etish, mulohaza yuritdik, amaliy san'atni kompyuter asosida o'rganishga ko'proq e'tibor berilishi lozim.

2. Amaliy san'atni o'tiladigan kasb-hunar kollejlarida nazariy metodik tadqiqot natijasi ko'rsatishicha naqqoshlik san'atini o'qitishga etarlicha kompyuter grafikasi dars soatlari ajratilgan emas.

3. Amaliy san'atni o'qitish masalasida kasb-hunar kollejlarida darslarga kerakli naqsh namunalarini kompyuter asosida o'rgatishga etarli darajada vaqt ajratilmagan. Naqsh elementlarini chizishda kompyuterlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

4. Kollej o'quvchilarini naqqoshlik haqida va amaliy san'at turlari to'grisidagi bilimlarini oshirish zarurati bor. Buning uchun ko'proq amaliy ishlarni kompyuter asosida bajarish ham lozim bo'ladi.

5. Tadqiqot natijalariga ko'ra bunday ishlarni jonlantirish uchun kollejlarda naqqoshlik to'garaklarini ham tashkil etish va unda o'quvchilarning ijodkorligiga alohida ahamiyat qaratish kerak. Bunday ishlarni yanada yaxshilash yo'llaridan biri mustaqil vazifalarni bajarishga katta e'tibor qaratish lozim. Bular o'quvchilarning tasviriy faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa

Bugungi kunda fan, texnika va texnologiyalarning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi kishilik faoliyatining turli sohalarida Yangi azborot texnologiyalarini keng joriy etishni talab etmoqda. Bu esa o'z navbatida davr bilan hamnafas bo'ladigan raqobotbardoshli, etuk zamonaviy mutaxassis kadrlarni tayyorlashni taqozo etadi. Ana shu bois, ushbu dissertatsiyada kasb-hunar ta'limi yo'nalishida kasbiy tayyorlashni takomillashtirishga information-texnologiyalarni joriy etishning ilmiy-uslubiy asoslari ishlab chiqildi. Bu borada olib borilgan izlanishlar asosida quyidagicha xulosalarni ifodalash lozim topildi:

- Ma'lumki, an'anaviy o'qitish tizimining markaziy siymosi bu o'qituvchidir. Zamonaviy axborot texnologiyalarini kasb-hunar kollejlarda, shu jumladan, amaliy san'at yo'nalishlaridagi kasb-hunar kollejlarda o'quv jarayoniga qo'llash natijasida sekin-astalik bilan asosiy jarayon o'quv jarayonining faol ishtirokchi o'qituvchi zimmasiga tusha boshlaydi. O'qituvchining asosiy pedagogik faoliyati – o'quvchilarning bilish faoliyatini muvaffaqiyatli ushlab turishga qaratiladi, ya'ni o'qituvchi talabaning o'quv axborotlarini oson o'zlashtirishiga ko'maklashuvchi bo'ladi.

- Zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlarini, ularda foydalanishning pedagogik maqsadga muvofiqligini hisobga olgan holda o'quv jarayoniga tadbiq etish o'qitishning samarali shakl va usullarining o'zgarishga olib keladi. Bu esa o'z navbatida ta'limning didaktik imkoniyatlarini boyitadi va kengaytiradi. Bundan tashqari ta'lim mazmuni va uning tuzilishini o'zgartiradi.

- Ta'limni axborotlashtirish sharoitida o'qitishning usul va tashkiliy shaklida o'zgarish yuzaga keladi. O'quv kursi mazmunini qayta tuzib chiqish esa o'quv materiali hajmi va mazmuni hamda uni o'qitish usulini tanlash mezonini o'zgartiradi.

- Zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlari tez rivojlanayotgan bir paytda kasb-hunar kollejlarda bo'lajak kasb-hunar ta'limi kichik mutaxassislarini kasbiy tayyorlash jarayoniga ularni qo'llash: umumkasbiy fanlardan naqqoshlik san'atini o'qitishga zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo'llashga;

o'quvchilar o'quv masalalarini hal etishga tizimiy yondashuv usulining o'zgarishiga; o'rganiladigan bilimlarning yuqori saviyada ko'rgazmaliligi ta'minlanishiga olib keladi.

- Naqqoshlik fanini o'qitishni takomillashtirish va o'quv jarayonida axborot texnologiyalarni qo'llash yuzasidan o'tkazilgan izlanishlar hamda ularni o'quv jarayonida foydalanish davomida olib borilgan kuzatuvlar va tahlillar natijasida:

- elektron ishlanmalar o'rganilayotgan materialni an'anaviy o'quv adabiyotlariga nisbatan induktiv yondashish, eshitish va emotsional xotiralarga ta'sir qilish yo'llari bilan materialni etkazish orqali tushunishni engillashtirishi;

- o'quv fanining mohiyatiga diqqatni jalb etgan holda ko'p sondagi ma'lumotlarni va topshiriqlarni qarab chiqishi. Ko'proq amaliy masala va topshiriqlar echishga imkon yaratgan holda murakkab hisoblashlar va almashtirishlardan xolos etishi;

- o'rganishning barcha bosqichlarida o'zini-o'zi tekshirib ko'rish uchun keng imkoniyatlar yaratishi; tajribali o'qituvchi vazifasini cheklanmagan tushuntirishlarni, sanoqsiz takrorlashlarni, eslatishlarni, taqdim etgan holda bajarish imkoniyatlari aniqlandi.

Kompyuter texnologiyalaridan ta'lim tarbiya tizimida, jumladan, naqqoshlik san'atini o'rganishda foydalanish avvalo, ta'lim oluvchilarning texnik-texnologik fikrlanishini o'stiradi, tafakkurini kengaytiradi, turli xil shakllarni tuza olishini takomillashtiradi. Ayniqsa internet ma'lumotlaridan foydalanish, bu sohadagi xalqaro tajribalarni ham uzlashtirishga va ularni o'z faoliyatida keng qullashga ham yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. I.A.Karimov «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». -T.: O'zbekiston. 1999. 62 bet.
2. I.A.Karimov Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. -T.: O'zbekiston. 1996. 300 bet.
3. I.A.Karimov Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat. 2008, 171 bet.
4. I.A.Karimov O'zbekiston mustaqillikka erishish ostanasida. -T.: O'zbekiston 2011. 440 bet.
5. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». -T.: Sharq, 1997.
6. «Axborotlashtirish haqida» O'zbekiston Respublikasi qonuni. -T.: 1993. 7-may.
7. O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasini axborotlashtirish kontsepsiyasi. Loyiha. O'zbekiston «O'qituvchi» 2004. 9 aprel.
8. «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etish chora- tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6 iyundagi 200- sonli qarori.
9. "2001-2005 yillarda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish. "Internet" ning xalqaro axborot tizimlariga keng kirib borishini ta'minlash dasturini ishlab chiqishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 23. 05. 2001 yildagi qarori.
10. Axborot tizimlari va texnologiyalari: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik //Mualliflar jamoasi: S.S.G'ulomov, R.X.Alimov, X.S.Lutfullaev va boshqalar - Toshkent.: «Sharq». 2000.
11. A.Erkayev Ma'naviyat – millat nishoni. -T.: Ma'naviyat, 1997. 27 bet.
12. B.Q.Xolmatov Kompozisiya. –T.: Iqtisod-moliya, 2007. 172 bet.
13. B.Q.Xolmatov Naqqoshlik. –T.: Iqtisod-moliya, 2007. 84 bet.

14. Ye.V.Lebedeva, P.M. Cheremnykh Iskustvo xudojnika-oformitelya. –M.: 1981, 162 ctr.
15. J. Barimbekov Kazaxskiy ornament. -Alma-Ata, 1986. 114 ctr.
16. K.M.G'ulomov Amaliy san'at. -T: Iqtisod-moliya, 2008. 90 bet.
17. K.M.G'ulomov Ashyolarga badiiy ishlov berish. -T.: «Bilim», 2004. 80 bet.
18. K.M.G'ulomov, S.S.Bulatov Sharqona usta shogird odobi. -O'zROO'MTV o'quv adabiyotlari, jurnal va byuletenlarni nashrga tayyorlash markazi, 2000. 120 bet.
19. M.Imomnazarov Ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. –T.: Sharq, 1996, 46 bet.
20. M.X.Mirzaahmedov Yog'och o'ymakorligi. –T.: O'qituvchi, 1995. 62 bet.
21. M.K.Mirzahmedov Boshlang'ich naqsh ishlash metodikasi. –T.: O'qituvchi, 1976. 56 bet.
22. M.T.Semenova Narodnoye iskustvo i yego problemy. -M.: 1977. 117 ctr.
23. Q.Q .Qosimov Naqqoshlik. –T.: O'qituvchi, 1990. 97 bet.
24. S.A.Solovev Dekorativnoye oformleniye. –M.: 1987. 56 ctr.
25. S.S.Bulatov Rangshunoslik. –T.: O'qituvchi, 2009. 160 bet.
26. S.S.Bulatov va M.Ashirov Amaliy san'at atamalar lug'ati. -Toshkent: Enseklopediya bosh red., 1991. 86 bet.
27. S.S.Bulatov, L.Dadashev Naqsh alifbosi. –T.: Cho'lpon, 1999. 58 bet.
28. S.S.Bulatov Ganchkorlik va naqqoshlik yog'och o'ymakorligi atamalariga izohli lug'at. -Toshkent: Mehnat, 1991. 89 bet.
29. S.S.Bulatov, M.Xaydarov Hunarmandchilik duolari. -Toshkent: 1994. 60 bet.
30. S.S.Bulatov O'zbekiston xalq amaliy bezak san'ati. –T.: Mehnat, 1991. 384 bet.
31. S.S.Bulatov, M.O.Ashurova Amaliy san'at qisqacha lug'ati. –T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1992. 64 bet.
32. Djo'raev R.X., Taylaqov N.I., Rasulova G. A.. Uzluksiz ta'lim tizimi

- uchun elektron o'quv qo'llanmalar yaratishga oid ilmiy-metodik talablar.
«Uzluksiz ta'lim» ilmiy –metodik jurnali. 2 son 2005. 14-27 betlar.
33. Jumanov I. Mingboev N.S. Axborot texnologiyalari. 2-qism. Samarqand - 2005.
34. To'raqulov X.A., Fayzimatov B.N., Ubaydullaev S., To'raqulov O.X., Hamidov J. A. «Texnika fanlarini o'qitishga yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ilmiy -pedagogik asoslari» o'quv qo'llanma. -Farg'ona. «Texnika». 2003.
35. Taylaqov N.I. Mallaev Z. Kasbiy ta'lim uchun axborot texnologiyalariga asoslangan o'quv adabiyotlarini yaratish. "Kasbiy ta'lim muammolari" Respublika ilmiy -amaliy konferentsiya materiallari. Samarqand 24-25 aprel. 49-50 betlar.
36. Shodiev N. Sh. «Yangi pedagogik texnologiyalar» Samarqand -2005. 67 bet.
37. H.Egamov Buyoqlar bilan ishlash. –T.: O'qituvchi, 1981. 116 bet.
38. Koburn. F, Makkormik P. Corel DRAW 9 – SPB 2000 g.
39. Tays. A. Photoshop – 5,5 SPB , .2000 g.
40. Foli Dj. Val Dem.A. Основы интерактивной машинной графики. -M.: 1985.
41. KotovYu.K. Geometricheskoye konstruirovaniye i mashinnaya grafika. -M.:1987.
42. S.I. Raxmonkulova. IBM PC shaxsiy kompyuterida ishlash . -T.: 1996
43. Fyedoryenkov A., Kimayev A. Auto CAD 2002 . - M.: 2001.
44. E.T. Romanicheva i dr. Auto Cad vers. 12, 13, 14. - M.: 1997.
45. E.I.Ruziyev Grafik dizayn. –T.: 1993.
46. E.I.Ro`ziyev «Grafika» Intyegrativ kursining variativ dasturlari. –T.: 1997.
47. E.I.Ro`ziyev Tyexnik grafika va dizayn asoslari. –T.: 1995.
48. Ye.X.Xolmatov, N.I.Taylaqov, U.A.Nazarov Informatika va hisoblash tyexnikasi. –T.: 2001.

49. T.Rixsibotov: Kompyuter grafikasi. –T.: O'zbekiston Yozuvshilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006, 22-26 betlar.
50. D.Mironov «Corel Draw 10». Uchebnyy kurs. Sankt-Peterburg. 2002.
51. G.Pankratova «Photoshop 6». Uchebnyy kurs. Sankt-Peterburg. 2002.
52. A.Sattorov «Informatika va axborot texnologiyalari». -Toshkent. «O'qituvchi» nashriyoti. 2003.

Internet ma'lumotlari

Www.Paradoxplus.Ru,
Www.Fjord.Jino-Net.Ru/
Www.microsoft.com
Www.cpress.ru/home/index.htm
Www.Win95mag.Com
Www.yahoo.com
Www.Infoseek.Com
www.n.b.g.t.intal.uz.